O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI

# TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI

FANIDAN

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

*NUKUS- 2023*

**«TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI»**

fanidan

# O'QUV USLUBIY MAJMUA

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning o'quv dasturi, ishchi dasturi, ma`ruza mashg`ulotlarining ta`lim texnologiyasi, seminar mashg`ulotlarining ta`lim texnologiyasi jamlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlarining bakalavr ta`lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

K.A.Kutlimuradov — Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish" kafedrasi dotsenti v.v.b, (PhD)

**Taqrizchilar:**

**N.**Orinbetov — Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasi dotsenti (PhD)

K.Seytniyazov — Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish" kafedrasi dotsenti

O'quv-uslubiy majmua Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Sirtqi ta'lim fakulteti ilmiy kengashining 2023- yil. 12.12. dagi №7- sonli qarori bilan tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

1. SO`Z BOSHI. SILLABUS ..........................................................................
2. TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI FAN DASTURI……
3. TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI FANINING ISHCHI O‘QUV DASTUR…………………………………………………………
4. TEXNOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI FANINING TAQVIM-MAVZU REJASI…………………………………………………
5. O‘QUV MATERIALLARI NAZARIY ..……………………………………
6. O‘QUV MATERIALLARI AMALIY………………………………………
7. GLOSSARI…………………………………………………………...
8. TARQATMA MATERIALLAR……………………………………………..
9. TESTLAR………………………………………………………………
10. BAHOLASH MEZONLARI………………………………………………….
11. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR………………………………………

# SO`Z BOSHI

Mazkur o`quv-uslubiy majmua “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi” fanidan 60110500-Boshlang‘ich ta`lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, Sirtqi ta’lim fakultetining “Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o’qitish“ kafedrasi professor-o`qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

“Texnologiya va uni o`qitish metodikasi” fani 60110500-Boshlang‘ich ta‘lim yo`nalishi o`quv rejasiga asosan 3-semestrda 30 soat ma’ruza, 30 soat amaliy va 4-semestrda 30 soat ma’ruza, 30 soat amaliy mashg`ulotlari o`qitiladi.

Ushbu o`quv-uslubiy majmua quyidagi qismlardan iborat bo`lib, ular sillabus, “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi” fan dasturi, “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi” fanining ishchi–o`quv dastur, o‘quv materialari, amaliy mashg‘ulot materiallari, seminar mashg`ulot materiallari, tarqatma materiallar, glossari, test savollari baholash mezoni hamda foydalaniladigan adabiyotlar berilgan.

Majmua sarlavha, reja, tayanch iboralar, asosiy matn, nazorat uchun savollardan tashkil topgan. Asosiy matnda talabalar o`zlashtirishi lozim bo`lgan zaruriy ma’lumotlar berilgan bo`lib, ularni “Texnologiya va uni o`qitish metodikasi” fani asoslarini o`rganishlarida nazariy jihatdan yordam ko`rsatadi.

## SILLABUS
**(2022-2023 o`quv yili uchun)**
**Modul / fan sillabusi**

| | |
|---|---|
| **Fan/modul:** | Texnologiya ta`limi va uni o‘qitish metodikasi |
| **Fan /modul turi:** | Majburiy fan |
| **Fan /modul kodi:** | TEXTOOM208 |
| **Yil:** | 2023-2024 |
| **Semestr:** | 3-4 |
| **Ta`lim turi:** | Kunduzgi |
| **Mashg‘ulotlar turi va semestrga ajiratilgan soatlar:** | 120+120 |
| **Ma`ruza** | 30+30 |
| **Amaliy mashg‘ulotlar** | 30+30 |
| **Mustaqil ta`lim** | 60+60 |
| **Kredit miqdori:** | 8 |
| **Baholash turi:** | Sinov va imtihon |
| **Kurs tili:** | O‘zbek |

# O‘QUV MATERIALLARI

## MA’RUZA MASHG’ULOTNING TA`LIM TEXNOLOGIYALAR ISHLANMASI

# Texnologiya va uni o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalari

**REJA**

**1. Mehnat ta’limining maqsadi**
**2. Mehnat ta’limi va tarbiyasining vazifalari**
**3 Mehnat tarbiyasini shakllantirish**
**4. Mehnat ta’limi vazifalarining uzviyligi**

**Tayanch so‘zlar**

**Ta’limiy maqsad** – o‘quvchilarning barkamol shaxslar bo‘lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, qo‘l mehnatiga o‘rgatish, ularni kasblar haqida ma’lumotlar berish bilan birga uyg‘unlashtirish orqali ularning kasbga tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat.
**Tarbiyaviy maqsad** – o‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarini, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.
**Rivojlantiruvchi maqsad** – mehnat ta’limi mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy badiiy estetik tarbiya va ta’lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.
**Nazorat maqsad** – o‘quvchilarning dasturda belgilangan bilim, ko‘nikmalarni DTS ga binoan o‘zlashtirish holatini nazorat qilishdan iborat.
**Ijodiy vazifa** – mehnat ta’limi jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta’minlash uchun o‘quvchilarning mustaqil ravishda ijodiy faoliyat yurita olishiga o‘rgatish.
**Amaliy vazifa** – buyum, narsa, namunalar asosida zaruriy vazifalarni amalda bajara olish.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlarning DTS lari va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich joriy etib borilmoqda.

Mehnat ta’limi bo‘yicha DTS da umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo‘naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o‘quvchilarning mehnat ta’limi fanidan tayyorgarlik darajasini me’yorlari ifodalanadi.

Mehnat ta’limi va tarbiyasining maqsadi o‘quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal etish talab qilinadi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda hal etiluvchi vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, u

o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy, ruhiy va axloqiy tayyorgarlikning barcha tomonlarini qamrab oladi. Mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o‘rgatish;
3. Mehnat qilishga nisbatan rag‘batni, shuningdek, muhabbatni uyg‘otish;
4. O‘quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;
6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;
7. Mehnatga hayotiy zururat, inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo‘lish;
8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;
9. O‘quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o‘z mehnati samarasidan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish;
10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o‘zlashtirishga erishish va hokazolar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o‘yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

Ijtimoiy mehnatning yana bir muhim tarkibiy qismi **mehnat tarbiyasi** sanaladi. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad, avvalo, o‘quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

**Mehnat tarbiyasi** shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

Mehnat tarbiyasining maqsadi shaxsda mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat.

**Mehnat tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:**

1. Shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish;
2. O‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish;
3. O‘quvchilarni turli mazmunga ega mehnat ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish;
4. O‘quvchilarda mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;
5. O‘quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish;
6. O‘quvchilarda mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni mehnatsevarlikka, tejamkorlikka o‘rgatish.

Mehnat ta’limi o‘qituvchisi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma’lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatida ko‘nikishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabida mehnat fanini o‘qitishning maqsadi: O‘quvchilarning aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari bilan tanishtirish. Kasblar to‘g‘risida ma’lumotlar bilan tanishtirish. Dastlabki mehnat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish. Mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish. Mehnat va kasblarni qadrlash, ularning ahamiyatini tushunishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf mehnat ta’limi uchun uzviy bog‘lanishni yaratish kerak. Bular ta’limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hisoblanadi.

**Ta’limiy maqsad** – o‘quvchilarning barkamol shaxslar bo‘lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, qo‘l mehnatiga o‘rgatish, ularni kasblar haqida ma’lumotlar berish bilan birga uyg‘unlashtirish orqali ularning kasbga tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat.

**Tarbiyaviy maqsad** – o‘quvchilarning mehnat ko‘nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarini, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.

**Rivojlantiruvchi maqsad** – mehnat ta’limi mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy badiiy estetik tarbiya va ta’lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

**Nazorat maqsad** – o‘quvchilarning dasturda belgilangan bilim, ko‘nikmalarni DTS ga binoan o‘zlashtirish holatini nazorat qilishdan iborat.

**Ijodiy vazifa** – mehnat ta’limi jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta’minlash uchun o‘quvchilarning mustaqil ravishda ijodiy faoliyat yurita olishiga o‘rgatish.

**Amaliy vazifa** – buyum, narsa, namunalar asosida zaruriy vazifalarni amalda bajara olish.

Maktabda mehnat ta’limidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

– o‘quvchilarda dastlabki nazariy va amaliy mehnat tajribalarini hosil qilish, zamonaviy texnika borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, ularda kishilar mehnati va mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga tayyorlash;

– o‘ziga topshirilgan har qanday ishni uddalay bilish, mehnatning o‘ziga xos madaniyati va uning nazariy asoslarini egallash, o‘z ishini va o‘rtoqlarining ishlarini rejalashtirish hamda tashkil eta olishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni mehnat ta’limi mashg‘ulotlari jarayonida aqlli, odobli, yaxshi axloqiy sifatlar shakllangan, did-farosatli hamda jismonan sog‘lom qilib tarbiyalashni amalga oshirish.

Mehnat ta’limi fani boshqa o‘quv fanlaridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

- Ushbu fanni o‘qitishda amaliy mazmun ustivorligi;
- Ishlab chiqarish bilan uzviy va chambarchas bog‘liqligi;
- Mujassam fan ekanligi (fanlar bilan aloqadorligi);
- O‘qitishda o‘g‘il va qiz bolalar mehnatining o‘ziga xosligi.

1–4 sinflarda mehnat ta’limi mashg‘ulotlari mazmuni va usullari o‘qituvchilar tomonidan insonlarning umumiy mehnat va kasb faoliyatlariga doir dastlabki mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar har bir mehnat harakatini ongli ravishda va shu harakatdan ko‘zlangan maqsadga muvofiq shaklda bajarishga o‘rgatib boriladi.

1–4 sinflarda mehnat ta’limi darsi haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi. 1 sinfda 33 soat, 2–4 sinflarda 34 soatdan jami 1–4 sinflarda 135 soat o‘qitiladi.

O‘quvchilar mehnat ta’limini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarni hal qilish lozim.

**Tashkiliy vazifalar:** Mehnat ta’limi bo‘yicha nazariy amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv xonalari hamda unda maxsus ish joyi tashkil qilish, xavfsiz va qulay mehnat sharoitini yaratish zarur. Xomashyo materiallar, asboblar, moslamalar bilan ta’minlash. Sanitariya-gigiena, mehnat xavfsizligi bo‘yicha belgilangan talablarning to‘liq bajarilishini ta’minlash va muntazam nazorat qilib borish. Mehnat korxonalari, tashkilotlar, kasb-hunar kollejlari bilan uzviy aloqa o‘rnatish, o‘quv xonada ishlash qoidalari bilan tanishtirish, sinf jurnallarini, rasmiy hujjatlarni, ish rejalarini yuritish.

**Uslubiy vazifalar:** Mashg‘ulotlarning yarim va bir yillik ish rejalarini tuzish, bunda mahalliy sharoit va ehtiyojlar va imkoniyatlarni hisobga olib, o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin bo‘lgan kasb turlarini tanlash, o‘g‘il va qiz bolalarning o‘zlariga xos mehnat mashg‘ulotlarini amalga oshira borish, mashg‘ulotlarda zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar, didaktik vositalardan keng foydalanish, mehnat ta’lim va tarbiyasining birligini ta’minlash.

O‘quvchilarda mehnat malaka va ko‘nikmalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlari, shaxsiy ruhiy va fiziologik sifatlarini hisobga olish, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish.

Boshlang‘ich maktablarda mehnat ta’limi va tarbiyasining asosiy vazifalari o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘qitish va umumta’lim maktablarining

boshlang‘ich sinflarida qo‘l mehnatiga o‘rgatish, kasblar to‘g‘risida ma’lumotlar berish, davlat ta’lim standartlari talabi bo‘yicha tarbiyalash hamda o‘quvchilarni kasb-hunar egasi bo‘lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishdan, mehnat madaniyatini shakllantirishdan tashkil topgan.

Mehnat madaniyatining tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e’tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to‘g‘ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarining me’yori va sifatiga, ish ko‘rsatkichini ta’minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Kerakli material va asboblari bilan yetarli ta’minlanmaganlik ham mehnat madaniyatining shakllanishiga salbiy ta’sir etadi. Ba’zan o‘quvchilarning tayyorlanmaganliklari va uyushmaganliklari tufayli o‘qituvchining ko‘p vaqti bekorga sarf bo‘ladi: biri qaychisini, ikkinchisi qog‘ozini olib kelmasdan, mashg‘ulotlarga qatnashib ish qilayotgan o‘rtog‘ini narsa so‘rab chalg‘itadi. Shuning uchun o‘qituvchi dars boshlashdan oldin guruh sardorlari yordamida o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stona yordamga tayanib o‘z vaqtida choralar ko‘rishi lozim. Biroq har qanday holatda ham o‘quvchini uyga jo‘natmaslik yoki jazo berish tartibida o‘quvchini ishsiz qoldirmaslik kerak.

Mehnat ta’limiga ijodiy tashabbussiz yondashish mehnatni aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi. Bilimlarni qo‘llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan mehnat faoliyati aqliy qobiliyatlarni o‘stirmaydi.

Mehnat ta’limi u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibda va harakatlar izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo‘ladigan ko‘p marta mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

Mehnatni sharaflash mehnat ahlining qadr-qiymatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o‘sib kamol topayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida mehnatga munosabatlarini shakllantirish zarur bo‘lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o‘z bilimi: mehnat, kasb-hunarlari bilan hissa qo‘shishlari pedagog tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Savollar**

1. O‘quvchilarni qo‘l mehnatiga o‘rgatishdan asosiy maqsad nima?
2. Qanday qo‘l mehnati ish turlari o‘rganiladi?
3. Mehnat ta’limi va tarbiyasining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

# Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari

**REJA:**

1. O‘quvchilarni mehnatga axloqiy tayyorlash
2. O‘quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash
3. O‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash

**Tayanch so‘zlar**

1. **Mehnat-** Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish.
2. **Jarayon -** Oqimning borishi, sodir bo‘lishi, ish-harakat voqea –hodisaning birin-ketin borishi, rivoji.
3. **Boshlang‘ich ta’lim-** Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zR da boshlang‘ich ta’lim 1-4 sinflarda bolalarga ilk ta’lim berish, ularni ma’naviy kamol toptirishning boshlang‘ich davri hisoblanadi.
4. **Dars -** O‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadi va tugal mazmunidan iborat jarayon.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo‘yadi. Shunga ko‘ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o‘zgarishlar qilishi lozim. Har bir o‘quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang‘ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarida o‘z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va mehnatni har tomonlama uyg‘unlashtira olishga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘quvchilarni mehnatga tarbiyalash va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang‘ich sinflarda butun ta’lim va tarbiya tizimida hamda barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o‘rinda mehnat darslari yetakchi rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limining ilk tushunchalari, malaka va ko‘nikmalari mehnat darslarida shakllantiriladi.

Boshlang‘ich maktabdagi mehnat ta’limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy, ruhiy tayyorlash va amaliy tayyorlash, o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

**Mehnatga axloqiy tayyorlash** – o‘zaro do‘stona yordamni berishni, ijodiy tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishni, mehnat kishilari va mehnat natijalarini hurmat qilishni o‘rgatishdan iboratdir.

Mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda jamoa asosidagi mehnatni uyushtirish muhim masalalardan biridir. Zero, jamoa ishtirokida o‘tkazilayotgan mehnat jarayonida o‘quvchilarda do‘stlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam va hamkorlik,

jamoa mehnat samaralaridan quvonish kabi xislatlar tarbiyalanib boradi. Shuningdek, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mehnatga ijodiy yondashish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish singari axloqiy sifatlarning shakllanishiga poydevor qo‘yiladi.

Mehnat jarayonida o‘quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati - bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo‘lish, uni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o‘rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo‘lishiga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat ko‘rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o‘zida yana o‘quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to‘g‘ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o‘quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasidagi yangiliklardan boxabar etish, ularda mehnatga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat

**Mehnatga ruhiy tayyorlash** – o‘quvchilarning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy xususiyatlarni tarkib toptirish, o‘quvchilarning mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallashga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga o‘quvchilarning mehnatga qobiliyatini shakllantirish, jamiyat rivojlanishi uchun ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini tushuntirish juda muhimdir.

Mehnatga ruhiy tayyorlash o‘quvchilardagi turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular: sezib-anglash, psixomotor, emotsional-idrok, diqqat, xotira, taffakkur – mehnatning psixologik komponentlaridir.

O‘quvchilarni mehnatga o‘rgatishda uning ruhiy imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o‘stirish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki, mehnat faniga oid materiallarni eslab qolish va amaliy ishlarni bajarish boshqa predmetlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha yangi asboblar, materiallarni, amaliy ishlarning nomini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari predmetni ko‘rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab o‘rganadilar, tushunib oladilar.

O‘qituvchi mehnat darslarida amaliy ishlarni tushuntiribgina qolmay, balki asosiy materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarining izchilligini ko‘rsatadi. Shu bois mehnat ta’limida  eshitish, ko‘rish xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan-yangi bilim va ko‘nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash va xotirada saqlab qolish kerak.

Mehnat ta’limini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarni qiyinchiliklarni engishga, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida qat’iyat bilan mehnat qilish, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga etkazishga o‘rgatish lozim. Bu o‘rinda o‘quvchilarda ijobiy natijalar: mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo‘lishi juda muhimdir .

**O‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash**. Boshlang‘ich sinf mehnat ta’limida keng ma’nodagi mehnatning ilmiy asoslari haqida emas, mehnat ta’limning elementlari to‘g‘risida gap boradi. Bu o‘quvchilarda mehnatning yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg‘onishiga yordam beradi. Politexnik bilimga ega bo‘lish qo‘yilgan mehnat vazifalarini bajarishda yordam beradi. Shuningdek, bu bilim kerakli amaliy ish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni qo‘llash va uning sabablarini anglashga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta’limining muhim omillaridan biridir. U o‘zaro bog‘langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, u yoki bu materialga ma’lum izchillikda ishlov bera olish, yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘irlay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga amaliy tayyorlashni faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshirish mumkin. U boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Mehnat ta’limining mazmuniga muvofiq o‘quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo‘lgan materiallarga ishlov berish, qo‘llaniladigan oddiy asbob va moslamalardan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

O‘quvchilar ta’lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o‘rni va rolini, inson kamolotini ta’minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an’anaviy va noan’anaviy shakllardan foydalanilmoqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko‘rgazmalari, hashar, “Mohir qo‘llar” tanlovi, “Quvnoq shahar ustaxonasi”, “Yosh radio-texniklar to‘garagi” va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an’analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta’limi va boshqalar.

Mehnat tarbiyasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlardanoq o‘zlarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos mehnat faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o‘z-o‘ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xonasi ozodaligini saqlash, o‘quv qurollarini ta’mirlash, kitoblarni elimlash, o‘quv anjomlarini darsga tayyorlash va hokazolar).

Mehnatga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatni tashkil etish jarayonida intizomga bo‘ysunish, maqsadni amalga oshirish yo‘lida shijoat, qat’iyat ko‘rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Mehnat ta’limi vazifalari haqida gapirilganda, o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma’naviy ta’minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. O‘quvchilarni barkamol shaxs bo‘lib voyaga etishida mehnat ta’limining roli ko‘p qirralidir. Mehnat o‘quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo‘zg‘atuvchi vositagina emas, balki uning manbayi hamdir. Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy jihatdan o‘stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o‘sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Mehnat ta’limi shaxsning eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta’limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o‘z mehnati uchun shaxsiy mas’uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo‘pol, og‘ir va yoshlariga nomunosib asboblar bilan shug‘ullansalar ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin.

Mehnat malaka va ko‘nikmalari u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo‘ladigan ko‘p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

**Savollar**

1. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda nimani tushinasiz?
2. O‘quvchilarning ish unumi qanday oshiriladi?
3. O‘quvchilarda mehnat ko‘nikmasi qanday hosil qilinadi?
4. O‘quvchilarning aqliy o‘sishida mehnatning ahamiyati.
5. O’quvchilarni aqliy o’sishida mehnatning ahamiyati?

# Boshlang`ich sinflarda texnologiya ta`limining mazmuni

**REJA**

**1.Mehnat ta'limining mazmuni va uning tashkil etilishi**.

**2.Mehnat malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish.**

**3.Amaliy ishlar tizimidagi asosiy talablar.**

**Tayanch so'zlar**

1. **Faoliyat -** Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon).
2. **Shakllantirish -** Nasliy omillar, muhit, maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik ta'sirida insondagi bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarni tarkib toptirish jarayoni.
3. **Ko'nikma -** Insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.
4. **Malaka -** Bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir.
5. **Bilim -** O'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida xosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumotlar.

**Mehnat ta'limining mazmuni va uning tashkil etilishi**. Mehnat ta'limi dasturida o'quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiy-texnik bilimlarining, mehnat malaka va ko'nikmalari hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta'limini berish, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topgan. Mehnat ta'limi dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma'lum o'zgarishlar kiritishi mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni pedagogikaning didaktik printsiplarga to'la-to'kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo'lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va mehnat ta'limining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda, muayyan izchillikda bayon qilinishi, turmush tajribasi bilan bog'langan bo'lishi kerak.

**Mehnat malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish**. O'quvchilarni tarbiyalash va ularni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta o'ringa ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat ta'limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Mehnat ta'limi dasturi talablarini bajarishda, mavzuga oid bilim berishda, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchilarga ma'lum hajmdagi politexnik bilimlar

beriladi. Boshlang‘ich politexnik bilim bilan qurollantirish o‘quvchilarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o‘ziga xosliklari, materialga qo‘lda ishlov berilganda qo‘llaniladigan asbob-moslamalarning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida ma’lumot berib boriladi.

O‘quvchilarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga o‘rgatish ma’lum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir.

Amaliy malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish amaliy mashg‘ulot turlarini o‘rgatish ham demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bajarishi kerak bo‘ladigan amaliy ish turlari xilma-xildir, biroq mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallamasdanoq amaliy ish jarayonidagi materiallarni o‘lchab olish va belgilash, ularni qirqib, ishlov berish, qismlarni yelimlash, tikish, o‘rash va bog‘lash kabi yo‘llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig‘ish va buyumni mantaj qilish va buyumni bezash ishlarini bajarish bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi.

O‘quvchilardagi mehnatga bo‘lgan qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg‘ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Bunda o‘quvchilarning e’tiboriga eng oddiy buyum o‘yinchoqlarni, o‘yinlarni, o‘quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applikatsiya ishlari havola etiladi. Bundan tashqari o‘quvchilarda mehnatga qiziqishni uyg‘otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash uchun “Mohir qo‘llar” to‘garaklarida, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Ko‘nikma** – bu kishining bilim va tajriba asosida egallangan, ma’lum harakatni ongli bajarishga bo‘lgan qobiliyatidir. Masalan: kartonni kesa bilish ko‘nikmasi, qaychini to‘g‘ri ishlata olish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo‘nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash.

**Malaka** – bu faoliyatdagi mashq qilishlar jarayonida etilgan, mujassamlashgan tajribadir. Bu tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko‘nikma yoki bu ma’lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko‘nikmadan sakrab o‘tish degan ma’noni anglatadi. Shunung uchun mazkur ko‘nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa u to‘g‘ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takommillashuv darajasi o‘qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o‘zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o‘quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo‘ladi.

Mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

a) boshlang‘ich tushuncha berish;

b) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish;

d) ish harakatlari natijasi;

e) yakuniy xulosa chiqarish.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan amaliy ishlar faqat vaqtga ko‘ra taqsimlanganda hamda ma’lum tizim asosida o‘tkazilgandagina ijobiy natija beradi.

**Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o‘z ichiga oladi:**

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.
2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to‘liq tarzda oldingi amaliy ishga asoslanishi lozim.
3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak.

Mehnat malakasining muvaffaqiyatli bo‘lishi bir qator shartlarga bog‘liq. O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Nazoratning yo‘qligi ko‘pincha xato va nuqsonlarning amaliy ishlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida etilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mehnat ta’limi bo‘yicha ishlarni amalga oshirayotganda o‘quvchilar u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko‘nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishi kerak. Ana shunday holda o‘qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo‘lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda muhimi o‘quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlaridan iborat. Boshlang‘ich sinf mehnat ta’limi darslaridagi ta’lim-tarbiyaviy vazifalar umumta’lim maktablaridagi mehnat ta’limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg‘ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash:

a) plastilin va loy ishi;

b) urug‘lar bilan ishlash;

d) applikatsiya va mozaika ishlari;

4. Loyihalash va modellashtirish:

a) badiiy qurish-yasash.

5. Qishloq xo‘jalik mehnati.

## 1-sinf

## Qog‘oz va karton bilan ishlash (13 soat)

Qog‘oz va uning turlari, qog‘ozdan buklash usulida turli o‘yinchoqlar, qog‘ozdan savatcha, kitob uchun xat cho‘p, “Qish” manzarasini applikatsiya usulida ishlash, archaga osiladigan turli o‘yinchoqlarni yasash. Turli bayramlar uchun niqoblar,

maydalangan rangli qog‘ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash. Karton sirtida uycha shaklini gugurt cho‘plaridan yasash. Rangli qog‘ozlardan qirqilgan geometrik shakllar bilan ishlash. Navro‘z bayramiga tabriknoma tayyorlash. Sabzavot va mevalarning urug‘idan applikatsiya usulida yo‘lsimon naqsh tuzish.

**Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (5 soat)**

Tikuvchilikda ishlatiladigan asboblar. Gazlama bilan ishlash, to‘g‘ri chok tikishni o‘rganish. To‘g‘ri chok turlaridan foydalanib, quyosh tasvirini tikish. Gazlama bilan ishlash. 2 teshikli tugmachani tikish.

**Plastilin va loy ishi (3 soat)**

Loy yoki plastilindan ishlash qoidalari haqida tushuncha. Plastilindan turli haykalchalar, jo‘ja shaklini yasash. Pazandachilikda ishlatiladigan xomashyolar, asbob-uskunalar haqida suhbat (Plastilindan tort, pishiriqlar shaklini yasash) .

**Turli materiallar bilan ishlash (4 soat)**

“Oltin kuz” mavzusida gerbariy tayyorlash. Bahorgi dala ishlari. Maktab yer uchastkasidagi gullarni parvarishlash.

**Badiiy qurish-yasash (8 soat)**

Tabiiy va turli materiallardan o‘yinchoqlar, parranda yoki hayvonlar shakllarini qurish-yasash. Hokandoz, rangli qog‘ozdan qirqilgan geometrik shakllarni bir-biriga yelimlash, qog‘ozni buklash va elimlash orqali o‘yinchoqlarni, turli maketlar va uchuvchi planer qurish-yasash.

**2-sinf**

**Qog‘oz va karton bilan ishlash (13 soat)**

Qog‘ozlarni buklash usullari, rangli qog‘ozlardan turli gullar shaklini yasash. Qog‘ozni qirqish va buklash orqali dekorativ gullar, kitobcha uchun muqova tayyorlash. Rangli qog‘ozlardan archa bezaklarini yasash. Rangli qog‘ozlardan o‘yinchoq pirpirak, ikkiga buklangan qog‘ozlardan qirqib, applikatsiya usulida naqsh yasash. Qog‘oz va karton yordamida “Bahorgi guldasta” applikatsiya usulida tayyorlash. Uchiriladigan qog‘oz qush yasash. Qog‘ozdan applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash. Qog‘ozdan turli o‘yinchoqlar yasash.

**Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (3 soat)**

Oddiy chok turlaridan foydalanib igna uchun yostiqcha, gul urug‘lar uchun xaltacha tikish.

**Texnik modellash (2 soat)**

Geometrik shakllardan robot yasash-qurish. Harakatlanadigan o‘yinchoqlar yasash.

**Plastilin va loy ishi (5 soat)**

Turli shakllarga ega bo‘lgan o‘yinchoqlar, xalq hunarmand ustalari ishlagan ish namunalariga qarab plastilin yoki loydan o‘yinchoqlar, uy jihozlari namunalarini yasash. Svetofor maketini qurish-yasash. Gullayotgan daraxt shoxchasini qurish-yasash.

**Turli materiallar bilan ishlash (9 soat)**

Tabiiy urug'lardan applikatsiya usulida naqsh tuzish. Tuxum po'choqlaridan hajmdor o'yinchoqlar yasash. Mozaika usulida qo'qongul, turli sabzavot va mevalarning urug'laridan yo'lsimon va kvadart ichida naqshlar tuzish, tabiiy materiallar bilan ishlash, quritilgan barglardan hayvonlar shaklini, tabiiy materiallardan jonivorlar, chiqindi materiallardan o'yinchoqlar yasash. Maktab er uchastkasida bahorgi dala ishlarini bajarish.

**Badiiy qurish-yasash (2 soat)**

Rangli qog'ozlardan archa bezaklarini, Navro'z bayramiga sinfni bezash uchun turli materiallardan osma o'yinchoqlar qurish-yasash.

**3-sinf**

**Qog'oz va karton bilan ishlash (13 soat)**

Qog'ozdan turli parrandalar, turli geometrik shakllar, rangli qog'ozlardan gullar yasash. Papye-mashe usulida o'yinchoqlar, idishlar, hajmdor gul tayyorlash va bezash. Qog'ozdan gullar, o'yinchoqlar, gerlyandlar, archa bezaklarini yasash. Rasm uchun ramka tayyorlash. Applikatsiya usulida bayramlarga tabriknomalar yasash.

**Gazlama bilan ishlash (7 soat)**

Chok turlaridan foydalanib, kartondan guldon, chovgum ushlagich, yumshoq o'yinchoq tikish. To'qish turlari haqida ma'lumot, to'qishning oddiy usullari, turli geometrik shaklarni to'qish.

**Texnik modellash (2 soat)**

Turli harakatli o'yinchoqlar yasash.

**Plastilin va loy ishi (3 soat)**

Plastilin yoki loydan turli idishlar, hayvonlar, o'yinchoqlar yasash.

**Turli materiallar bilan ishlash (2 soat)**

Tabiiy materiallardan turli o'yinchoq yasash. Chiqindi materiallardan turli o'yinchoqlar yasash.

**Badiiy qurish-yasash (7 soat)**

Tabiiy xomashyolardan applikatsiya usulida, urug'lardan mozaika qurish- yasash. "Qush bolasi bilan" kompozitsiyasini qurish-yasash. "Yil fasllari" manzarasini qurish-yasash.

**4-sinf**

**Qog'oz va karton bilan ishlash (10 soat)**

Mehnat ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik qoidalari asosida unumli foydalanish. Turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash. Duradgorlik asboblari. Qog'ozdan turli buyumlar yasash va uni bezash. Qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasash. "Qish", "Bahor" manzaralarini applikatsiya usulida ishlash. To'g'ri to'rtburchak ichida applikatsiyadan foydalanib, naqsh tuzish. Gilamdagi naqshlar.

Kulolchilik kasbi haqida ma’lumot. Papye-mashe usulida kosa yasash. Hamir tayyorlashga o‘rgatish (qog‘ozdan chuchvara).

**Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (7 soat)**

Chok turlari, yumshoq o‘yinchoqlar tikish. To‘qish haqida umumiy ma’lumot, to‘qishda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ulardan foydalanish va xavfsizlik qoidalari, to‘qish usullari. Gazlama gullaridan applekatsiya usulida guldasta tayyorlash. Ipdan o‘yinchoq yasash.

**Texnik modellash (2 soat)**

Geometrik shakllardan uchuvchi modellar yasash.

**Plastilin va loy ishi (5 soat)**

Plastilin bilan ishlash. Ertak qahramonlarini yasash. Oshxona jihozlari bilan tanishtirish. Plastilindan oshxona jihozlari yasash. Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan tanishtirish. Plastilindan uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash.

**Turli materiallar bilan ishlash (5 soat)**

Kuzgi gullarga qarab donlardan, urug‘lardan, tabiiy material, xomashyolardan gullar yasash. Gullarni parvarish qilish. Maktab er uchastkasida ishlash.

**Badiiy qurish-yasash (5 soat)**

Urug‘lardan mozaika usulida turli hayvonlarni qurish-yasash. Mustaqil ravishda tabiiy xomashyolardan kvadrat ichida naqsh qurish-yasash. Duradgorlik asboblari bilan tanishtirish. Turli idishlar yasash va uni bezash. Geometrik shakllardan “Kuz” manzarasini qurish-yasash.

Har bir o‘quv yilida va barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi. Birinchidan, o‘quvchilar ma’lum nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlari, ularning hayotda qo‘llanilishi bilan tanishadilar. Ikkinchidan materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o‘rganadilar.

**Savollar**

1. Mehnat ta’limi dasturi nima asosida ishlab chiqiladi?
2. Dasturga qanday sharoitda o‘zgartirish kiritish mumkin?
3. Mehnat ta’limining mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak?
4. O‘quvchilardagi mehnat malakasi va ko‘nikmasi qanday shakllanadi?
5. Amaliy mashqlar tizimidagi asosiy talablar nimalardan iborat?

**Boshlang‘ich sinf texnologiya darslariga kompetension yondashuv.**

**Reja:**

1.Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darsi mavzulariga qo‘yilgan talablar.
2.Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta ’limi tuzilishi o‘ziga xos xususiyatlari va mazmuni.
3.Barcha materiallarni o‘rganishdagi uzviylik va uzluksizlik “**Kompetentlik”** tushunchasining mohiyati.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini èrisha olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi**.**

“**Kompetentlik”** tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim,malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

**Inglizcha “competence”** tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita **“qobiliyat”** ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi **Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:**

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

**1. Ijtimoiy kompetentlik**-ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**2. Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

**Sifatlar:**
Ijtimoiy kompetentlik
Shaxsiy kompetentlik
Texnologikkompetentlik
Maxsus (èki kasbiy)kompetentlik
**Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar**
Ekstremal kompetentlik Psixologik,metodik,informatsion,kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik
- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda
- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

**1) psixologik kompetentlik**– pedagogik jaraènda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jaraènining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**2) metodik kompetentlik** pedagogik jaraènni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim èki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

**3) informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish,saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

**4) kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy èndashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**5) innovatsion kompetentlik** – pedagogik jaraènni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jaraènining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliètga samarali tatbiq etish;

**6) kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jaraènining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish,ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

**3.Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish,malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish.

**4. Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogikni
boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**5. Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jaraèn ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bun day tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova , va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi

**6. Pedagogning kasbiy kompetentligi**. O‘zbekistonda pedagogningkasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ularorasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash,o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

**Kommunikativ kompetensiya**:

**A1**

texnologiya faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qo‘llay olish;

tayyorlanadigan buyum ko‘rinishini sodda bayon qilish;

mavzu bo‘yicha savollar berish hamda savollarga javob berish;

muloqotda muomala odobiga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o‘z fikrini tushuntira bilish.

**A1+**

maktabda, ko‘chada, uydagi turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish;

olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish;

yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish.

**A2**

texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish, o‘z do‘stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha olish;

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

**A2+**

texnologiya faniga oid suhbat jarayonida suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish;
turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildiirish va zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi**:

**A1**

texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish,
o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma’lumotlarni o‘rganib borish.

**A1+**
texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib,
didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish;
fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish.
**A2**
mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv),
telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo‘natish) foydalana olish;
media vositalardan texnologiya fanini o‘rganishga oid zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.
**A2**
kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish, texnologik xarita va sxemalarga oid manbalarni qidirib topish, o‘rganish, tahlil qilish, tatbiq qilish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:
**A1**
texnologiya fanini o‘rganish;
amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish, kattalarni gapiga quloq tutish,
“Mohir qo‘llar” to‘garagida fanlarni o‘qib-o‘rganish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo‘lish;
to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘rtoqlarining xatosini tus huntirish, kattalarga,
kichiklarga, o‘rtoqlariga yordam berish, o‘qib-o‘rganish orqali bilimini oshirib borish.
**A1+**
texnologiya faniga oid turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
o‘zini xato va kamchiligini to‘g‘ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, o‘zini nazorat qilish.
**A2**
texnologiya fanini yo‘nalishlar bo‘yicha chuqurroq o‘rganish, yo‘nalishlarni bugungi kun talabi bo‘yicha o‘z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyolashda dizayner-modelerlik kasbi bo‘yicha yondasha olish,
shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish;
guruhlarda ishlashda ma’suliyatni o‘ziga olish, lider bo‘la olish, turli muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish;
konstitutsion huquq va burchlaridan to‘g‘ri foydalana olish;
jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish.
**A2+**
shaxs sifatida o‘z qiziqishlariga qarab, qobiliyatlarini namoyon qila olish,
ongli kasb tanlash, halollik, to‘g‘rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**:
**A1**
o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish;

o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam berish,

maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish va muomala madaniyatga amal qilish;
kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish, oiladagi o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglay olish; maktab binosi, sinfdagi jihozlar.

**A1+**

mebellarni asrab-avaylash farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga amal qilish;
o‘zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash;
maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

**A2**

sog‘lom e’tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish;

jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslik, o‘z munosabatini bildirish;
kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash.

**A2+**

Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya**:

**A1**

orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish, orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan o‘rnak olish, o‘z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash;
ozodalikka rioya qilish, milliy bayramlarini bilish, o‘quvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega bo‘lish, o‘zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish.

**A1+**

san’at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san’at asarlarini tahlil qilish, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;
yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, ziyorat qilish odobiga amal qilish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an’analar, bayramlar, sayillar) bilish.

**A2**

xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish.

**A2+**

xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish, maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

kundalik rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish, mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;

isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish.

**A1+**

dars jarayonida zarur bo'ladigan o'quv qurollari, xom ashyolardan tejamkorlikka rioya qilgan holda foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish;
texnika turlari va ularni qachon paydo bo'lganligini bilish.

**A2**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

**A2+**

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan o'rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bilish;
kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o'qiy olish va foydalana olish. Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

I. TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya
6. TK6- matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:
2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya:
3. FK3-To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi:

**Mavzu:Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga kompetension yondashuv**

XX asrning oxiri yangi texnologik jamiyat shakllanishining boshlanishi bilan ajralib turadi, bu erda texnologik bilim va ko'nikmalar alohida rol o'ynay boshladi. Bu dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari maktablarining o'quv rejalarida yangi texnologiya - "Texnologiya" ning paydo bo'lishiga olib keldi. An'anaviy mehnat ta'limini almashtirib, texnologiya kelajakda quruvchilar ham, tikuvchilar ham, bo'lajak

bankirlar, shifokorlar, aktyorlar va boshqa mutaxassislar uchun o'rganilishi kerak bo'lgan narsaga aylandi.

**Texnologiya** - bu rejaga muvofiq va inson, jamiyat va tabiatni muhofaza qilish manfaatlari uchun materiya (materiallar), energiya va axborotni maqbul o'zgartirish va ishlatish uchun ishlatiladigan bilimlar, usullar va vositalar sohasidir ".

**Kompetensiya** (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning krnun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba

Umumiy ta'lim tizimidagi "Texnologiya" ta'lim maydoni o'quvchining texnologik kompetentsiyasi, savodxonligi, dunyoqarashi va madaniyatini shakllantirish uchun kerak, ya'ni. texnologik bilim va ko'nikmalar majmuasi, mehnat, fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlari, shaxsiyatining o'ziga xosligi, insonparvarlik yo'naltirilgan dunyoqarashini shakllantirish.

Texnologiyani tushunish, ishlatish va boshqarish qobiliyati, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodkorlik, ong, fikrlash moslashuvchanligi va korxona rivojlanishi texnologik savodxonlikni tashkil qiladi.

Texnologik kompetentsiya texnologik kompetentsiyalardan iborat bo'lib, materiallarni, energiyani, axborotni o'zgartirishning turli usullari va vositalarini qo'llash, iqtisodiy samaradorlikni hisoblash va texnologik faoliyatning mumkin bo'lgan ekologik oqibatlarini, o'z hayoti va kasbiy rejalarini tuzish ko'nikmalarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

**Fan oʻqitilishining kompetensiyalari**

**Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba quyidagi bilimlarga:**

- Boshlang’ich sinflarda texnologiya fanining shakl va metodlari;
- Kasb-hunar tarbiyasi bo’yicha tadbirlar o’tkazish;
- Texnologiya fanining maqsad va vazifalari;
- Boshlang’ich sinf texnologiya fani mazmuni;
- Texnologiya fanidan amaliy ish turlari;
- Sinfdan tashqari ishlardan to’garaklarni tashkil etish;
- Mehnat tarbiyasida mutaffakkirlar merosini targ’ib etish;
- Boshlang’ich sinf texnologiya fanidan qo’yiladigan talablar;
- Texnologiya fani jarayonida interfaol metodlardan foydalanish;
- Texnologiya fanini o’qitish shakllari;
- Texnologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish;
- Texnologiya fanida xalq og’zaki ijodi vositalarini qo’llay olish;
- Boshlang’ich ta’limda qo’l mehnatining o’ziga xos xususiyatlari;
- Texnologiya fanidan amaliy ishlarni tashkil etish shakl va metodlari;
- Texnologiya faniga oid darslarni tashkil etish usullari;
- Texnologiya fanining shakl va metodlari;
- Texnologiya faniga oid o’quv dasturlarini tahlil qilish;
- Texnologiya fanidan taqvim-reja tuzish;
- Mehnat ta’limida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni rejalashtirish;

- Sinflar kesimida kasb-hunar turlarini toyifalash;
- texnologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish;
- “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanidan qog‘oz va karton turlari va xususiyatlari
- “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanidan qo‘l mehnatiga o‘rgatish usullari;
- “Texnologiya va uni o ‘qitish metodikasi” fanidan qaychi bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan nina bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni o ‘qitish metodikasi” fanidan bigiz va pichoq bilan ishlash qoidalari;
- “Texnologiya va uni o ‘qitish metodikasi” fanidan plastillin bilan ishlash texnologiyasi;
- “Texnologiya va uni o ‘qitish metodikasi” fanidan ip va tola turlariga ishlov berish texnologiyasi ***kabi bilimlarga ega bo‘lishi kerak.;***

**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba quyidagi ko`nikmalarga:**

- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan internet manbalarini qo’llash;
- nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligini ta ’minlash;
- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fani jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llash;
-Texnologiyajarayonidao‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiraolish;
- amaliy ish jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydala olish;
- Mehnat tarbiyasida kasb-hunarga qiziqtirish;
- Mehnat taTimi va tarbiyasida mehnat an’analaridan samarali foydalana olish;
- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan ta’limiy va tarbiyaviy innovatsion metodlarni qo‘llay olish;
- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan o'quvchilar bilimini tekshirishva baholay olish;
- o‘quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash;
- o‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash;
- o‘quvchilarni mehnatga axloqiy tayyorlash;
- “Texnologiya va uni o ‘qitish metodikasi” fanini o'qitishda texnik vositalardan foydalana olish;
- “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanida turli ko‘rgazma hamda tarqatma materiallardan samarali foydalana olish;
- texnologiya darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
- texnologiya darslaridan mustaqil ishlami tashkil etish;
- texnologiya darslarida sanitariya-gigienik talablarga rioya etish;
- amaliy mashg'ulotlar uchun ko‘rgazmali materiallami tayyorlash;
- texnologiya darslarida tabiiy materiallarga ishlov berish;
- texnologiya darslarida qog‘oz va kartonga ishlov berish;
-texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarda ishjoyini to‘g‘ri tashkil etish;

- texnologiya darslarida tabiiy materiallardan ko'rgazmalar tayyorlash;
- texnologiya darslarida plastilindan turli o ‘yinchoqlarni yasash;
- texnologiya darslarida gazlamadan turli buyumlar tikish;
- texnologiya darslarida qog‘ozdan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash;
- texnologiya darslarida kartondan turli modellar yasash;
- texnologiya darslarida ipdan chok turlarini tikish;
- texnologiya darslarida matodan yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash kabi ***ko’nikmalarga ega bo‘lishi kerak.***

**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba quyidagi malakalarga:**

- texnologiya darslarida nazariy bilimlarni amalda qo‘llash olish;
- texnologiya darslaridan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish;
- texnologiya darslari jarayonini intergatsiyalash va modernizatsiyalash;
- texnologiya darslarida ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olish;
- texnologiya darslarida turli va tabiiy materiallardan samarali foydalana olish;
- plastilin bilan ishlashda hakaltaroshlik elementlaridan foydalanish;
- qog‘oz va karton bilan ishlash darslarida tejamkorlikka o ‘rgatish;
- texnologiya darslaridan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish;
- boshlang‘ich sinf Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarni qo‘llash;
-mehnat ta’limi va tarbiyasida ajdodlar merosidan va xalq og‘zaki ijodidan foydalanish;
- sinf va sinfdan tashqari ishlarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish;
- o‘quvchilami kasb-hunarga yo‘naltirishda tashkiliy, ilmiy, metodik, axborot va dasturiy ta’minotni amalga oshirish ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.***

## Mavzu: Texnologiya ta`limining shakl va metodlari

**REJA**

1. Mehnat ta’limining shakllari
2. Mehnat ta’limining metodlari
3. Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llanadigan asosiy usullar

**Tayanch so‘zlar**

**Ta’lim -** Shaxsning jismoniy va ma’naviy kamol topish jarayoni, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo‘nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo‘lishga har tomonlama barkamolikka intilish jarayoni tushuniladi.
**Tushuncha -** Bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (ba’zan fikrlar) – tafakkur shakli.
**Tasavvur -** Bo‘lgan va bo‘lmagan voqea va xodisalarni inson ko‘zi ochiq va yopiq holda ham o‘z tasavvurida bo‘ladigan jarayon hisoblanadi.

**Tafakkur -** Insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne'matdir.

Yoshlarning fan-texnika rivojida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Mehnat ta'limiga o'rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlarda qatnashuvchi kishilar, agar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyim yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida, shunchalik muvaffaqiyatga erishmagan bo'lardilar.

Mehnat ta'limiga o'rgatishni ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga erishadi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatishi kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin.

Hayotini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar o'z faoliyatini mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

Mehnat ta'limi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Mehnat ta'limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Ko'r-ko'rona taxminiy yo'l bilan egallangan ko'nikma va malaka tor ma'noda bo'lib, puxta bo'la olmaydi. Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini ko'tarish vazifalariga bo'ysundirilishi kerak. O'quvchilarga berilgan topshiriqlar ularni ijodiy izlanish, ta'lim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o‘quvchilarning tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo‘li bilan borish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Bunday yo‘l bilan borish o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Har bir mavzuni o‘rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab, shunungdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini singdirmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar qo‘l mehnatini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar.

O‘qitish usullari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

**Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llanadigan asosiy usullar tizimi quydagichadir**:

1. Og‘zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.
4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Mustaqil ishlar.
7. Ekskursiya.
8. Kitob bilan ishlash.
9. Texnik vositalar.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarni mehnat ta’limi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa, o‘qituvchi o‘quvchilarning mehnat ta’limi va tarbiyasining malaka va ko‘nikmalarini egallashlari va mehnatga tayyorlash to‘g‘ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash inson uchun zarur bo‘lgan sifatlar shakllanadi.

***Og‘zaki bayon qilish*** usuli ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

*1. Monologik bayon qilish.* Bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi.

*2. Dialogik bayon usuli.* Bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

***Tushuntirish va hikoya qilish.*** Bu usulda materialni jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o‘qituvchining o‘zi beradi. Ba’zan suhbat davomida o‘quvchilarning qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agar bajarilgan ishlar, natural rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko‘rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi. Bu o‘rinda tushuntirayotganda “ko‘rsat va tushuntir” degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o‘quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda o‘zlashtiruvchilarga alohida e’tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntiralayotgan material yuzasidan bir-ikkita savol berish mumkin.

***Suhbat*** usuli  turli o‘quv maqsadlarda, ya’ni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo‘llanishi mumkin. Bu usulda o‘quvchilardagi qiziquvchanlikni qo‘zg‘ab, savollar berish foydalidir. Suhbat xuddi hikoya singari ma’lum talablarga javob berish kerak, ya’ni:

- savollarni shunday shakllantirish lozimki, ular o‘quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;
- mavzuni ochib berishda izchillik bo‘lishi uchun suhbatning rejasi oldindan tuzib qo‘yilgan savollari albatta bo‘lishi kerak;
- o‘quvchilarning diqqati qaysi dalil va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o‘quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi, o‘quvchilarda bo‘lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o‘tashi, egallangan bilimlarni amalda qo‘llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak.

***Mashqlar*** bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ko‘nikma va malakalarni mastahkamlash maqsadida o‘quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib, ko‘proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi.

Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko‘p marta takrorlanishidir.

Mashqlar ommaviy va yakka tartibda bo‘ladi, ya’ni butun guruhda bir xil ishni va barcha o‘quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin.

Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo‘lgani uchun o‘quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishini saqlash talab etiladi.

Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko‘rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to‘xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

***Amaliy ishlar.*** Bu usul o‘quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ko‘rgazmali qurollarning o‘quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

***Mustaqil ishlar.*** Bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o‘rinda o‘quvchilar o‘zlarining intilishlarini qo‘llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar qo‘l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lishi kerakligini his etsinlar. O‘quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo‘lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Mustaqil ishlarning keng qo‘llanishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

***Ekskursiya*** mehnat ta’limining asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarishdagi turli asbob-uskunalar bilan tanishadilar, mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatadilar va o‘rganadilar. Turli mehnat obyektlariga ekskursiyalar uyushtirish, o‘quvchilarni mehnat kishilari bilan, ular ishlatayotgan asbob-uskunalari bilan, mehnat jarayonining tashkil etilishi va ishlab chiqariladigan mahsuloti bilan umumiy tarzda tanishtirish, yangi asbob-uskunalarning namunalarini va ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasini, ilg‘or ish usullari va mehnatni ilmiy tashkil etish metodlarini o‘rganish maqsadida ham tashkil etilishi mumkin.

Turli mehnat obyektlari bilan tanishtirish xususiyatiga ega bo‘lgan ekskursiyalarni mehnat ta’limining biror bo‘limi (gazlama bilan ishlash, xizmat ko‘rsatish va hokazolar) boshlanishidan oldin o‘tkazish kerak. Aniq mavzuga doir ekskursiyani dasturdagi biror mavzuni o‘tishdan keyin yoki undan oldin o‘tkazgan ma’qul. Ekskursiya odatda 15-20 o‘quvchidan iborat bitta guruh bilan ommaviy tarzda o‘tkaziladi, biroq ekskursiya jarayonida ayrim o‘quvchilar uchun yakka tartibda ko‘rsatma va tavsiyalar, izohlar berish kerak.

Mehnat o‘qituvchisi ekskursiya jarayonida o‘quvchilarning ishlab chiqarish jarayonini kuzatishlariga rahbarlik qilib turadi.

Turli mehnat obyektlarida o‘tkaziladigan har qanday ekskursiyaning mazmuni uch bosqichda olib boriladi.

1. Kuzatish obyektini oldindan tanlash, uning aniq maqsadlari hamda vazifalarini belgilash, korxonaga dastlab o‘qituvchi borib ko‘rishi, zarur hujjatlarni (darsning rejasi, o‘quvchilar uchun beriladigan topshiriqlar va hisobot shakllarini) tayyorlashdan iborat bo‘lgan tayyorgarlik bosqichi.

2. Mehnat o‘qutuvchisi ekskursiya maqsadlari hamda vazifalari, korxona hududida o‘zini tutish qoidalari, kuzatish obyektlari, ekskursiya yo‘nalishi to‘g‘risida suhbat o‘tkazishi, o‘quvchilarning bevosita kuzatishi va zarur vazifalarni bajarishi.

3. Ekskursiya jarayonida tug‘ilgan savollarga, turli muammolarni hal qilishga qaratiladigan yakunlovchi suhbat o‘tkazish bilan cheklanilmaydi. Mehnat ta’limi bo‘yicha navbatdagi mashg‘ulotlarda bajarilgan vazifalarni va hisobotlarni tahlil qilish hamda jamoa tarzida muhokama qilish yo‘li bilan ekskursiyaga yakun yasaladi.

Ekskursiya bilishga qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik tuyg‘larini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ekskursiyadan so‘ng savol-javob o‘tkazish lozim. Masalan, to‘qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o‘quvchilarga guruhlar bo‘yicha topshiriqlar berish mumkin.

***Kitob bilan ishlash.*** Hozirgi kunda mehnat ta'limi bo'yicha 1–4- sinflarga mo'ljallangan "Mehnat" darsliklari asosida o'qituvchidan o'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatish talab qilinadi. Bu maqsadda quyidagi kitoblardan qo'shimcha foydalanish tavsiya etiladi: X.Sanakulov, D.Xodiyeva. "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar", metodik qo'llanma; Sanakulov X.R, Xodiyeva D.P, Rustamova M. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi darslarida modulli figuralar yasash texnologiyasi", metodik qollanma.

O'quvchilarni kitob bilan tanishtirishdan oldin o'qituvchining o'zi bu kitobni puxta o'rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O'quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga asta-sekin o'rgatib borish kerak.

***Texnik vositalar.*** Hozirgi kunda barcha ta'lim sohalarini texnik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qo'l mehnati mashg'ulotlarida ayrim bo'limlarni o'rganish, kasblar haqida ma'lumot berish, amaliy ishlarni tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo'llanadi.

Aytib o'tilgan usullar mehnat ta'limi o'qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. Mehnat ta'limi bo'yicha bilimlarni egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Mehnat o'qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning barcha turlarini bir xil yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o'z ishida o'qitishning turli usullari bilan birga, pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etgan o'qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam berishi mumkin.

O'quv materiali mumkin qadar qiziqarli va o'qimishli qilinganda, u yaxshiroq egallanib, o'quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo'llash osonroq bo'ladi.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o'qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darslarni to'g'ri tashkil etishda xar xil o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni oldindan o'ylab qo'yilgan tuzilishi bo'lishi muhimdir. Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham oldindan alohida topshiriqlar tayyorlab qo'yish kerak.

Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko'nikmalarini egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, bilimga qiziqishini o'stirishga yordam beradi.

O'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligini rivojlantirish o'z navbatida buyumga, mazkur holatda – xizmat ko'rsatuvchi mehnatga qiziqishini rivojlantirishda ko'maklashadi.

**Savollar**

1. Mehnat ta'limini tashkil etish shakllari qanday?
2. Mehnat ta'limini tashkil etish usullari qanday?

3. Mehnat ta'limimni tashkil etish mazmuni nima?
4. Mehnat ta'limimni samaradorligini oshirish shartlari qanday?

**Mavzu: Texnologiya ta'limi darslariga integratsion yondashuv.**

**Reja:**

1. **Integratsiya haqida tushuncha.**
2. **Mehnat ta'limining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.**

So`ngi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani madaniyatining ilg`or yutuqlarini jamlagan, o`tmish ajdodlarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan.

Ta'lim amaliyoti ko`rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo`lga qo`yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo`layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o`quvchilarning bilimlarni ongli o`zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim o`rinni egallaydi. Boshlang`ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo`g`in vazifasini o`qituvchining o`zi amalga oshiradi.

"Integratsiya" so`zi lotincha integration-tiklash, to`ldirish, "integer" butun so`zidan kelib chiqqan.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi.

-birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog`liklik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

-ikkinchidan tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik predmetlararo aloqadorlik, o`zaro aloqadorlik va nihoyat o`zaro bir-birini to`ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o`quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Mehnat metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tabiat, o'lkamiz tarixi, o'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot metodikasi, ona tili, tasviriy san'at, o'qish, iqtisod bilan bog'liq




**O'quvchilar matemiatika darslarida** o'rgangan son, sanoq son yig'indi, ayirma, mavzularini mehnat darsida ishlatishi mumkin. Masalan: O'quvchilar bir necha gul yaproqlarini sanab chiqib qirqadilar. Gullarni qirqishda sanoq asosida doira shakllari chizib qirqiladi. Barcha olingan bilimlar mehnat darsida mustahkanilanadi.





**Ona tili** darslarida o'rgangan mavzular mehnat darslarida ham qo'llash mumkin. Masalan:Sifat mavzusi mehnat darsining ko'p mavzularida qo'llanadi. Orttirma, qiyosiy daraja, kamaytirma musbat tushunchalar bo'ladi. Ranglarni bir-biridan farqi: Qizii, qip-qizil, qizg'ish, katta, kattaroq, kichikroq.




**O'qish** darslarida masal, ertak, sh'er, hikoya o'qishadi. O'rganilganlar asosida mehnat darsida applekatsiya yasash mavzusi bo'ladi. Masalan: I-sinflarda „Bo'g'irsoq", „Sholg'om" ertaklari asosida applekatsiya yasaladi. Applekatsiyani bajarishdan oldin o'quvchi tomondan ertak so'zlab beriladi.

 

**Tabiyatshunoslik** fani bilan bog'liqligi darslarda o'quvchilar tabiat in'om etgan barglar, urug'lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o'yinchoqlar, aplekatsi- yalar yasashadi.

 

**Tarix** fani bilan bog'liqligi qog'oz mavzusini o'tishda uning kelib chiqishi tarixi, kuiolchilk, tiaqqoshlik, kashtachilik, misgarchilik, yog'ochsozlik tarixi haqida o'quvchilarga tushun- cha beriladi. Bunda o'quvchilarga milliy an'analarimizga nisbatan muhabbat uyg'otishadi.



**Tasviriy san'at** darsi bilan mehnat darsi chambarchars bog'liqdir. Bu ikki fan har doim bir-birim to'ldirib boradi. Chunki yasalgan narsa tasviri awal chiziladi. Shu chiziqlar asosida kerakli shakllar qirqiiadi.

 

**Pedagogika** fani ta'lim-tarbiya usullarini o'rgatuvchi fan bo'lganligi sababli mehnat darsi bilan doim bog'liq.

**Psixologiya** fani o'quvchilarning yosh xususiyatlarini bilgan holda mehnat darsini olib boradi. Mehnat har bir narsani yasattirayotganda o'quvchilarning ruhiy jarayonini hisobga olish zarur.

**O'lkamiz tarixi** bu fan bilan bog'liqligi o'quvchilarni atrofda bo'ladigan barcha yangiliklar o'quvchilarni yangi bilimlar asosida dars o'tishga ularni fikrlash qobilyatlarini kengaytirishga, ekskursiyalar tashkil qilish va ekskursiyalar asosida ko'rgan narsalarni bajarishga o'rgatadi.

**O'quv ustaxona amaliy mashg'ulot** bu fanga bog'liqligi o'qishda bajaradigan har bir ishlar tayyorlanadigan ko'rgazmalar va ulardan qanday foydalanish kerakligini qaysi fanlar bilan bog'liq holda yangi usul bilan dars berish mehnat metodikasi fanida tushincha beriladi.

**Savollar**

1. Integratsiya haqida tushuncha bering.
2. Mehnat ta’limi qaysi fanlar bilan bog`liq?

## Mavzu: O‘quvchiIarning mehnat tarbiyasida mehnat an’analarining o‘rni

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida (2019 yi 27 avgust) “Ta’lim to`g`risida”gi qonun qabul qilindi. Unda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta’lim tizimini, uning boshqaruv tarkibi, o`qituvchi -pedagoglarning huquq va burchlari aniq belgilab berildi.

Ta’lim sohasidagi bosh maqsad- demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalq milliy an’analari va urf – odatlari, shuningdek umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya mazmunini tubdan yangilash, pedagogik jamoalar tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Urf-odatlar insonlarning ko`p asrli faoliyatlari-mehnati, turmush va oilaviy ta’sirlari natijasida yuzaga keladigan xalq udumlarining o`zaro bog`langan zanjiri sifatida qaraladi. Tarixiy o`tmishda mehnat tarbiyasi sodda amaliy bilimlarga asoslangan bo`lib, maqsadga erishishning ma’lum prinsiplari va vositalariga ega bo`lgan.

Xalq an’analaridan foydalanish pedagogik tizimning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-mehnat yordamida tarbiyalash,

-izchillik va tizimiylik,

-bolaga talabchanlik va insonparvarlik munosabatida bo`lish, o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

**Mehnat tarbiyasining asosiy vositalariga** quyidagilar kiritilgan: kuchi yetadigan ishlab chiqarish mehnati, xalq og`zaki ijodi, o`yin faoliyati, urf-odatlar, udumlar, milliy udumlar kiritilgan bayramlar;

**Prinsipial xususiyatlarga-**

- mehnatni insonning majburiyati sifatida va bolalarni tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qarab chiqish;-
- bolalarni o`z kuchiga loyiq ishlab chiqarish mehnatiga erta jalb qilish, oiladagi mehnat muhiti, xalq og`zaki ijodi, o`yin faoliyati, shuningdek milliy mehnat bayramlari, urf-odatlar, usumlar vositasida mehnatga psixologik tayyorlash;
-mehnatning pedagogik jihatlarini hisobga olish, ya'ni bolalarni kichik uka va singillarini tarbiyalashga jalb qilish;
-tarbiyaning muhim omili- ota, ona, oila a'zolari, tengdoshlar jamoasidan foydalanish.
O`quvchilarning mehnat tarbiyasini qurishda biz ilg`or mehnat an'analarining, urf-odatlarning roliga o`rin ajratadi, chunki ularda mehnat kishilarining ko`p asrli tarbiyaviy tajribasi, samarali pedagogik ta'sirning katta potensial imkoniyatlari mujassamlangan.

O`quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan yaxlit foydalanishning nazariy modeliga qo`yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

-o`quv tarbiyaviy jarayonni intensifikatsiyalsh, uni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;

- mehnarning axloqiy qadrini tushunib yetish;

-mehnatga axloqiy qadriyatli munosabatda bo`lish.

O`quvchilarni mehnat tarbiyasida ularni ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan, intellectual va axloqiy rivojlanishi; ularning bilish va faoliyat ehtiyojlari hamda talablarning shakllantirilishi va qoniqtirilishi; muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga va umuminsoniy axloqiy munosabatlar tizimiga jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan.

## Mavzu: Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.

**Reja:**

**1. Mutafakkirlarning kasb-hunar haqidagi fikrlari.**
**2. Mehnat darslarida mutafakkirlar merosidan foydalanishning ahamiyati.**

Odam hunarning yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina hunarga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat Sharq mutafakkir allomalari hunar va hunarmandlarga katta e'tibor berganlar. Jumladan, Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt, e'tibor bilan maslahatlar berib, husniga rag'bat ko'rsatib, hamda ularga homiylik qilganlar. Alisher Navoiyning fikricha "Inson bo'lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan"- deydilar.

Shuningdek donishmandlarimiz o`git qilganlarki, vaqtida ilm hunarga muhabbat qo'ying, o'rgatilgan narsalarni yodingizda tuting, ilm hunar o'rganishga chin ixlos bilan kirishing, yoshligingizni bekorga o'tkazmang. Hattoki, ulug' shayxlarimizning

o’zlari ham biror hunar egasi bo’lganlar. Masalan Shayxul Mashoyix Abu Said Xarros etikdo’zlik qilgan. Shayx Muhammad Sakko mashhur pichoqchi, Shayx Hoja Bahouddin Naqshbandiy ajoyib naqqosh bo’lganlar, boshqalarni hunar o’rganishga da’vat etganlar. Hoja Bahouddin Naqshbandiy aytadilar – “Dil bayoru dast bakor” ya’ni “Diling ollohda, qo’ling doim mehnatda bo’lsin”.

Insoniyat qadr-qiymati mehnatda, bilimda, hunarga tayanishda, birovga xor bo’lmaslikda deb bilgan Sa’diy shunday ta’lim beradi.

O’z mehnatidan non yegan kishi,
Xotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Muqaddas kitob Avestoda ham mehnat moddiy boyliklar manbai bo’lgani uchun emas, balki u mehnatni asosan axloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun insonlarni mehnat qili35shga chaqiradi.

«Avesto»da yana shunday bir fikr bor: Bolalarga voyaga etgan sayin to`rt narsani yaxshi o`rgating. Eng avvalo, ko`chat ekib bog` qilishni, uy ro`zg`or buyumlarini yasashni, chorvani boqishni hamda ekin ekishni yaxshi o`rgating, mana shu to`rt narsani bola yaxshi bilsa xor bo`lmaydi, farovon hayot kechiradi».

Xalq pedagogikasida “Yoshlikda egallangan bilim, hunar toshga o’yib yozilgan hikmatdur” – deb ta’kidlanadi.

“Farzandlarga odob-hunar o’rgatmak merosdur” – deb nasihat qilinadi Qobusnomada “Sen odob, hunar va donishini o’zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo’lgaysan”. Chunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo’qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pesha (kasb) din yaxshiroq meros yo’qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidir. Demak albatta hunar o’rganmoq zarurdir:

O’tay o’g’lingga bilan desang agar,
Sen o’qishdi, o’rgatgin ilmu-hunar.
Agarda senda koruncha ham bo’lmasa zar,
O’z o’g’ishmingni qoldirmagin behunar.

Hunarning nechog’lik zarur ekanligini qator rivoyatlar, naqllar, ertak dostonlarda ham o’z aksini topgan. “Oltin baliqcha”, “Savdogar bilan podachi”, “Sirli gilamcha”, “Baliqchi bola”, “Ikki naqqosh ishi” kabi ertaklar “Hasanxon”, “Rustam”, “Ziyod” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Hunar egallash ham bir fazilatdir mahoratdir. Hunar egallashda halollik, poklik, sabr-qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim rol o’ynaydi

Ota-bobolarimiz ham hunar o’rganishni asosiy vazifa ekanligini o’rgatib kelganlar. Nizomiy Ganjaviy shunday degan:

Hunar o’rgan chunki hunarda ko’p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

Abu Rayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan-avlodga meros bo’lib o’tishini sinchiklab o’rgangan va hunarni yuqori baholagan. U “Hunarmandchilikda, mehnatda to’liq ustozlik san’atini egallab olishi kerak”, degan fikrni aytadi. Odatda o’sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o’rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.
2. Shogird etish tanilgan usta qo'lida yakka shogird bo'lish.
3. Ustaxonalarda yakka shogirdlik tartibida o'rganiladi.

Xalqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlashni o'zlariga muhim vazifa deb hisoblaganlar. O'z farzandiga kasb-hunar o'rgatgan ustazodalari (usta darajasiga ko'tarilgan farzand) bo'lib yetishganlar. Tanlangan usta hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bolalar bir necha yil hunarga ta'luqli bo'lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar.

SAVOLLAR.

1.A.Navoiy mehnat to'g'risida nima degan?
2. Qaysi allomalarni bilasiz va ular mehnat, kasb-hunar haqidagi fikrlrini ayting.
3.Kasb-hunarni o'rganish usullari qanday?

**Mustaqish ish topshiriqlari**

1. Mutafakkirlar fikrlaridan namunalar yozing.

| Mutafakkirlar | Mutafakkirlar fikrlari | Ahamiyati |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

**Mavzu: Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni**

**Reja:**

**1. Xalq og`zaki ijodi haqida qisqacha tushuncha**
**2. Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni**

**Xalq og`zaki ijodi -**xalq tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlardir.

Xalq og`zaki ijodi janrlariga ertak, doston, rivoyat, masal, afsona,latifa, lof, topishmoq, maqol, matal, tez aytish, alla, laparlar,yor-yorlar kiradi.

Xalq og`zaki ijodida mehr-muhabbat,halollik, elni e'zozlash, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, vafodorlik, sabr-qanoat kabi insoniy fazilatlar ulug`lanadi. Baxillik, kibr-havo, hasad, fitna-fasod, dilozorlik, xudbinlik, tekinxor'lik, ilmsizlik, nodonlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi.

Xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobiy qahramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bog'lab turadi, yoshlarga estetik zavq va did bag'ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg'otadi.

Mehr-oqibat, komil inson shakllantirishda mehnat tarbiyasining o`rni juda kattadir. Mehnat inson hayoti uchun, uning faravon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Mehnat faravon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy shartli bo`lganligi sababli hamma fidokorlar uchun majburiydir.

Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflanadigan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki jasur faoliyatidir. Mehnat inson hayotining sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog`liqlarini mustahkamlaydilar, o`z kelajaklarini yaratadilar.

O`zbek xalqining og`zaki ijodi ma`naviy madaniyat shakllari va rivojlanish qonunlari asosida shakllanib va rivojlanib xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy va sinfiy munosabatlari, milliy psixologiya va xarakteri o`ziga xosligi bilan, boshqa mamlakatlar bilan madaniy avlodlari bilan belgilangan o`zining xususiyatlariga ega. Shuning uchun o`zbek xalq og`zaki
ijodida samimiyatni tarixiy rivojlanishini, undagi sinfiy va ijtimoiy munosabatlarini to`g`ri ochib berishga, dunyoqarashni rivojlantirish darajasini bilishga ko`maklashadigan holatlar bilan bir qatorda ilg`or g`oyalarni yosh avlodni an'anala rida tarbiyalashda foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Xalq eposi asoslari hunarmandlar mehnatini kuyladi, ular hayoti haqida, hunarmandchilik mohiyati haqida tushuncha beradi.

Buyuk xalqimiz, otalar va bobolarning o`zaro bir- biriga hurmatini qadrlaydi. Shuning uchun ham xalq og`zaki ijodining barcha asoslari pedagogik bo`lib, bolalarni kattalarga xususan ota-onalarga hurmatda tarbiyalash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish fikri xizmat qiladi.Masalan: "Zumrad va Qimmat`` ertagi bolalarni oiladagi mehnatga odatlantirishga qaratilgan.

Maqol va matallarda mehnatkash xalqi o`ylari, axloqiy normalari va mehnat muammolari aks etgan. Avloddan avlodga o`tib ular aniqlanib, qo`shilib asta sekin qisqa, ammo o`tkir va aqlli qoidalarga aylangan.

Xalq maqollarida yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bilan kasb-hunar egallashga da'vat ham asosiy o`rinni egallaydi. "Hunar o`rgatish uchun ham hunar kerak, hunar yoshdan, -aql boshdan, kasbi yaxshining asabi yaxshi. Qunt bilan o`rgan hunar, hunardan rizqing unar. Yigit kishi er bo`lur, mehnat qilsa sher bo`lur" kabi mazmunli maqolllardan xalqimiz bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanadilar. Mehnatkash xalq ijod qilgan maqollar mehnatni,o`zaro yordam va hamjihatlikni ulug`laydi.

"Daryo suvini bahor toshirar,
Odam dardini mehnat oshirar".
"Oltin o`tda bilinar,
Odam - mehnatda".
"Qunt bilan o`rgan hunar,
Hunardan rizqing unar.

Hunari yo`q kishining
Mazasi yo`q ishining.

Faqat yaxshi mehnat qilib, inson maqsadga erishishni va baxtli bo`lish mumkin. Bu fikrni xalq bolalarga ibtidoiy jamoada, so`ng feodal va boshqa davrlarda ham singdirgan.

Bizning fikrimizcha, kasb-hunarga qiziqtirishda mehnat an'analarini qo`llash pedagogik-psixologik yondashuvga quyidagi sifatlar kiradi:
-mutafakkirlar merosidan foydalanib o`quvchilarda oila manfaati uchun mehnat qilishga qiziqishini shakllantirish.

-mehnat qilish ehtiyoji va qobiliyatini rivojlantirish:
-turg`un iroda sifatlarini tarbiyalash;
-mahalla, jamoatchilik tarbiyasini tarkib toptirish;
-oilada mehnat, kasb-kor, hunar madaniyati haqida tushunchalarni shakllantrish.

Xalq –insoniyatning oliy axloqiy boyliklarini, jumladan eng qimmatli an'analarining ijodkoridir. Xalq o`z an'analarini o`zining mustaqilligi uchun matonatli kurashida ijod qilgan, ularni mehnatda, chet el bosqinchlari bilan kurashda chiniqtirgan.

An'analarning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy mazmuni keskin sinfiy tortushuvlar davrlarida ayniqsa yaqqol yuzaga chiqqan. Ommaviy xalq harakatlari davrida insonlar katta ijtimoiy ehtiyojlar bilan yashaganlar, kelajak uchun kurashdilar va shu davrda yuksak an'analar shakllandi.Taraqqiyot jarayonida milliy xarakter xislatlari va insonlar ruhiy tizimi xususiyatlari bilan bir qatorda yangi ijtimoiy munosabatlar natijasida hosil bo`lgan va barcha millatlarni yuksak an'analarni mujassamlashtirgan ma'naviy qiyofaning umumiy hujjatlari shakllanadi va rivojlanadi.

An'analarga faqat shunday tarixiy yondashish ular rivojlanishning murakkab dialektikasini ochib berish mumkin, an'analar tarixida qaysinisi esa ixtiyoriy davr uchun xos bo`lgan insonlar ijtimoiy ehtiyoji bilan birga vujudga kelganligini aniqlash mumkin.

Tarbiya inson jamiyati bilan birga mehnat va ma'naviy tarbiya sifatida paydo bo`lgan. Ijtimoiy-me'yoriy tajribani mustahkamlash va uzatishning eng qadimgi shakli odat bo`lgani tufayli jamoada ham "umumiy aloqa, jamiyatni o`z, intizom, mehnat tartibi odat, an'ana kuchi tufayli ishlangan".

Axloqni hamda axloqiy tarbiyani tiklashi va rivojlanishi birinchi navbatda turli an'ana va odatlar shakllanishi va rivojlanishiga bog`liqdir.

Mehnat an'analari insonlarni mehnat malakalari va mehnat jarayoni ko`p marta qaytarish natijasida shakllangan va odatga aylangan insonlarni o`ziga xos axloqiy, psixologik sifatlarini yig`indisidir.

Xalqning mehnat an'analari mehnat doirasida axloqiy munosabatlarini amalga oshirish mustahkam o`rnatilgan uslublarining mustaqil sohasini hosil qiladilar. Mehnat an'analarining ma'naviy mazmunini hosil qiladigan g`oyalar, xis-uyg`ular, tuzilmalar to`plashi quyidagi elementlarni o`z ichiga oladi.
1. Xalq avloddan yuqori baholangan mehnatkashlarning sifatlari.

2. Xalqqa taalluqli elementlar boshqa insonlarning mehnat yutuqlaridan quvonib, mehnatga hayot mazmuni sifatida qarash lozim.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug`lab kelishgan, o`zlari sidqidildan qilishgan. Bizga ulardan meros bo`lib qolgan barcha xazinalar ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mavjudidir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo`shgan al-Xorazmiy, ibn Sino, Buxoriy, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo`lga kiritgan va yoshlarni ham mehnatni sevishga, mehnatsevar bo`lishga chaqirishgan.

Mehnat hayot chirog`iga yo`g` quyib turadi. Mehnat bilan charxlanib turmagan kuch susayadi. Ishlamaslik har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi .

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshdan boshlab mehnatga o`rgatish zarur. Sharq madaniyatining buyuk namoyondasi Mirzo Ulug`bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne'matlarni tejab-tergab tasarruf qilish to`g`risida bilimlar berish kerakligini ta'kidlagan. Yoshlar bilimlarni ongli ravishda o`zlashtirishlari, o`z fikr- mulohazalarining to`g`riligiga bevosita kuzatuv orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatib o`tgan.

Umuman ma'rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib turli asoslarida yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do`stlik va odamiylik kabi olijanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini g`oyat va ta'sirchan shakllarda ifodalaganlar, ular yoshlarni kasb-hunar o`rgatishga, har kim o`zi qiziqqan va o`ziga munosib faoliyat bilan shug`ullanishiga da'vat etganlar. Mehnatkash odam kuch vaqt birovga qaram bo`lib qolmaydi degan fikrni ilgari surganlar.

Yoshlar mehnatsevar bo`lib tarbiyalanish bilan bir vaqtda inson qo`li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka chaqirilgan. Uvolning oqibati gunoh bo`lishi ajoyib o`gitlarda, xalq og`zaki ijodida ham keng o`rin olgan.

Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy faravonlik manbai bo`lib qolmay yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi. Loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik xislarini paydo qiladi.

Mehnat kishining va kishilik jamiyatning eng zarur yashash shartidir. Inson nima bilan faxrlansa va u nima bilan e'zozlansa, ularning hammai mehnatning natijasidir. Mehnat barcha boyliklarning manbai bo`lishi bilan birga, u inson hayotining o`zini mazmuni hamdir. Buning boisi shundaki, insonning o`zini inson sifatida shakllantirgan ham insonning qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyon qilgan ham ana shu mehnatdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari ko`p qirralidir. U o`quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarligining juda ko`p tomonlarini

qamrab oladi.

**Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasi** yosh avlodda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi hamda ularni mustaqil davlatning turli sohalarida mehnat qilishga amaliy tayyorlashdan iborat bo`lib, o`quvchi yoshlarda mehnatga ongli va mustaqil munosabatni shakllantiradi.
Bu muhim masalani hal etish o`quvchilarda mehnatga muhabbat va mehnat ahliga nisbatan chuqur hurmat kuchlarini tarbiyalashni, jamiyat foydasi uchun sidqidildan va samarali mehnat qilish mehnatda tashabbus ko`rsatish va unga nisbatan ijodiy munosabatda bo`lish umum ishi uchun jonbozlik va ma'suliyat hissi kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishni talab etadi

Mehnatga mustaqil munosabat bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

-O`quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy tayyorlash;

- jamoada mehnat ko`nikmalarini tarbiyalash;

-o`quvchilarda fan, madaniyat va texnikaga qiziqish uyg`otish va qobiliyatini rivojlantirish.

O`quvchilarni mehnatda tarbiyalash dastlab oilalarda, maktabda – o`quv-tarbiya ishining butun sistemasida, ishlab chiqarish kollektivlari mehnatida ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi. Mehnat faoliyati davomida o`quvchilarning mehnat va uning mohiyati haqidagi bilimlari kengayib boradi. Mehnatda ishtirok etishlari orqali mehnat qilish tajribalarining ortib borishi bilan o`quvchilarning mehnat qobiliyatlari ham rivojlanib boradi. Bolalarning o`quv mehnati, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda faol qatnashishlari, maktabda o`z-o`ziga hizmat qilishning keng yo`lga qo`yishni, ijtimoiy-foydali va unumli mehnatda qatnashishlari mehnat tarbiyasi vazifasini ham qilib borishda yordam beradi.

O`quvchilar mehnat tarbiyasi jamoalari xilma-xildir.

Ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasi;

Sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mehnat;

O`z-o`ziga xizmat qilish bo`yicha mehnat;

Ijtimoiy foydali mehnat va unumli mehnat normalari

SAVOLLAR

1. Xalq og`zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Mehnat tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni qanday?

**Mavzu. Texnologiya darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘nltirish texnologiyalari**

**Reja:**

1. Kasbga yo`naltirishning tarixiy taraqqiyoti haqida tushuncha berish.
2. Mehnat ta’limi jarayonida kasb tanlashga yo`llashning maqsadi, vazifalari, forma va metodlari
3. O’quvchilarga kasbga yo`naltirishning maqsad va vazifalarini bilish

***Tayanch tushuncha va iboralar:*** Hunarmandchilik, kasb-hunar, Inson-inson, inson-tabiat, inson-texnika, inson belgilar tizimi, inson badiiy obraz. Kasbiy maslahat, kasb tanlovi, kasbiy moslashish hissiy irodaviy xislatlar.

Mustaqil O`zbekiston Davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan isloxatlar jarayonida asosiy bo`g`in hisoblangan umumiy o`rta ta’lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o’quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo`naltirishda iboratdir.

Kasbga yo`naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil toplashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalk xo`jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to`laqonli ta’minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini hisobga olish kerak. O’quvchilar shaxsini shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasb tanlash ishlarining puxta o`ylab tashkil qilinishi katta rol oynaydi. Har bir o’quvchining oldida o`zi yoqtirgan kasbni tanlash uchun keng imkoniyatlar bor.

Har qaysi maktabdagi kasb tanlash ishlarining vazifasi va mazmuni uning atrofidagi ishlab chiqarishning xususiyatlari, tabiiy sharoitlari mazkur iqtisodiy tomondagi xalk xo`jaligi va madaniyatining rivojlanish yo`nalishlari bilan belgilanadi. Maktab o`z tarbiyalanuvchilarini kasblar, mehnatining mazmuni, u yoki bu kasb egalariga qilinadigan talablar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish o’quvchilarning individual, jismoniy va psixologik xususiyatlarini o`rganish va ularga ana shu xususiyatlarga mos kasblarni tanlashlarida yordam berish kerak.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini, ta’limini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo`naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo`lib juda o`tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq, elat bo`lib shakllanishi mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo`lmaydi.

Inson paydo bo`lishidan boshlab mehnat bilan shug`ullangan, turmush buyumlari yasagan namunalar bajargan. XII-XV asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda hunar, ilmi kuloni rivojlanishi eng yuqori pog`onaga ko`tarildi. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo`lib, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan o`zining tarixiy –madaniy birligi bilan ajralib o`ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. O`zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamizning hududida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu

davrda sinfiy jamiyat paydo bo`lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo`lib ajralib chiqqan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar avj olgan. Ayrim maktablarga asoslanib shuni aytishimiz mumkin, 32 xil hunar turi mavjud bo`lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atalgan 1897 yili 1-chi aholi ro`yxati vaqtida katta shaxarlarda aholining ko`pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Aholisining 64 foiz, Qo`qonning 52%. Marg`ilonning 50% mustaqil kasb – hunar egasi hisoblangan.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko`p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunikasozlik bo`lgan. Xozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblar biri yog`och buyumlari yasash hunarmandchiligidir.

XX asr boshlarida tikuv mashqlari paydo bo`lishi bilan yangi hunarmandchilik kasb yuzaga keldi. Shu bilan birga, Hunarmandlar terida poyafzal, nonvoylik, qandolatchilik, qassoblik, oshpazlik kasblari yuzaga kelgan.

Ulug` bobokolonimiz A.Navoiy o`z g`azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,
Hunar o`rgandi onga ki imkoni bor.

***Kasb-hunar fazilati tugma bo`lmaydi. Xalklar va shahar ahlilarida, axloq-odob, kasb hunar, odat va irodani hosil qilishi uchun insondagi zo`r kuch va qudrat talab qilinadi.***

Kasb-hunar egallashni ahamiyati to`g`risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) yilning asarlarida ham ko`ramiz. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb hunarni o`rgatish lozim. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Sharqu-G`arbda ham Amerikada ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e’tibor bilan qaralgan. Ularni kasb-hunar egallashlariga otalik-ustozlik maslahatlarini, yol-yo`riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo bo`la boshlagan.

Birinchi kasbni hunar byurosi 1908 yil AQSh ning Boston shahrida tashkil etilgan bo`lib, bu soha kasbga yo`naltirishning boshlanish deb yuritilib kelmoqda.

Insonning bilim, ko`nikma va qobiliyatlarini tashhis qilish bilan bog`lik kasbga yaroqlilik darajasini baholash elementlarining paydo bo`lish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Sinab ko`rish va tanlovda o`tkazishni buyuk alloma Pifagor o`z boshidan o`tkazgan. O`qishdan so`ng Gretsiyaga qaytgach u o`zi bosib o`tgan sinovlar tizimi asosida talabalar tanlab olinuvchi maktab ochgan. 1922 yilda Germaniyada kasbga yo`naltirish va hunar to`g`risidagi qonun qabul qilindi. Nizom tasdiqlandi. Rossiyada kasbga yo`naltirish XX asrning dastlabki yillarida amalga oshira boshladi. 1927 yilda Leningradda tashkil etilgan kasbiy hunar byurosi misol bo`la olish mumkin.

O`zbekiston mustaqillikni qo`lga kiritilgan yildan boshlab ta’lim tizimida tub o`zgarishlar ro`y bermoqda. «Ta’lim to`g`risida» gi Qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qabul qilinishi natijasida xalq xo`jaligining malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash tizimi yaratilmoqda.

Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar 5 tipga bo`linadi.

**1 Inson-tabiat**. Bu tipga masalan, quyidagi kasblar kiradi. Urug`shunoslik, meva-sabzavotshunoslik, agronomiya, zootexnik, usta-chorvador.

«Inson-tabiat» tipidagi kasblardan quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin. O`simliklar organizmi mehnat predmeti bo`lgan kasblar.

***2.*Inson texnika.** Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy yetakchi predmeti-texnika obyektlar, mashinalar, mexanizmlar va boshqalar metall ishlab chiqarish, transport mashinalarini remont qilish, sozlash va ularga xizmat ko`rsatish.

3. **Inson bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir**. Mazkur tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin. Insonlarni o'qitish va tarbiyalash bilan, bolalar jamoalarini uyushtirish bilan bog`liq bo`lgan kasblar.

Ishlab chiqarishni boshqarish (rahbarlik)
Maishiy savdo xizmati
Axborot xizmati ko`rsatish bilan bog`lik bo`lgan kasblar.
Meditsina xizmati ko`rsatish bilan bog`lik bo`lgan kasblar

4. **Inson – belgili sistema**. Kasblarning bu tipdagi shartli belgilar, raqamlar, kadrlar. Hozirgi zomon kishisi belgilar va belgi sistemalari dunyosida – tekstlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar yo`l belgilari ichida yashaydi. Binobarin bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.
5. **Inson badiiy obraz**. Kasblarning bu tipidagi badiiy obrazlar, ularning tizimi usullari yetakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu yerda quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin:
   Tasviriy faoliyat bilan bog`lik bo`lgan kasblar
   Musiqa faoliyat bilan bog`lik bo`lgan kasblar
   Adabiy-badiiy faoliyat bilan bog`lik bo`lgan kasblar
   Aktyorlik-sahna faoliyat bilan bog`lik bo`lgan kasblar

O'quvchilarni kasbga yo`naltirishning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat faoliyati sohasini asosli va to`g`ri tanlashda yordamlashishdir. O'quvchilarni kasbga yo`naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to`g`ri tanlangan bo`lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbayiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Kasb tanlashga yo`llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan xal etiladigan umum maktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta'limi alohida o`rinni egallaydi. O'quvchilarni kasb tanlashda asosiy omillar ota-ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni fan asoslari, politexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga , kasblarni ongli ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabdagi kasb tanlashga yo`llash ishlari quyidagi maqsadlarni ko`zda tutadi.

1. O'quvchilarni kichik sinflardan boshlab xalk xujaligining turli tarmoklari bilan tanishtirib borish.

2. O’quvchilarni xalq xo`jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.
3. Kasb tanlashga yo`llash ishlarini olib borishda o’quvchilarni asosan maktab joylash hududining korxona, tashkilotning ehtiyoji uchun zarur bo`lgan kasb va mutaxassislarga yo`llash.
4. Har bir o’quvchining bo`lajak kasbni tanlashi obyektiv va ongli harakatlarga ega bo`lishi lozim.

O’quvchilarni kasb tanlashga yo`llash sohasida oldiga qo`yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim vazifalar hal etilish lozim.

I. Ularning qiziqishlari, mayli va qobiliyati, psixofiziologik imkoniyatlari, jismoniy tayyorligi va salomatligi o`rganilishi
II. Ularning kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirishga doir tadbirlar o`ylab ko`rilishi
III. Tanlangan mehnat sohasidagi amaliy faoliyatning tashkil etilishi bu o’quvchilarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirish va mustaxkamlashga yordam beradi
IV. Maktabni bitirib chiqayotgan yoshlarning kasbga qat’iy qiziqishlarini tarkib toptirish va mustahkamlashda yordam ko`rsatish, ishlab chiqish sharoitlariga ko`nikishiga doir tadbirlar belgilanishi kerak.

Kasb tanlash juda muhim masala bo`lib ko`pincha o’quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak.

O’quvchilarning ish tajribasi o’quvchilarni kasb tanlashga yollashning fark va metodlarini belgilab berdi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat.

1. Darslarda kasb tanlashga yo`llash. Masalan o’qituvchi o’quvchilarni mashgulotlarda bajaradigan ish bilan bog`lik kasblar bilan tanishtiradi. O’quvchilar yog`ochga ishlov berishni o`rganayotganlarida, duradgor, yogoch kesuvchi, rom yasovchi, parnolovga kasblar haqida bilim oladilar. Metallga yoki gazlamalarga ishlov berishda slesor, tokor, parnolovchi, tikuvchilik, va xakazorlar bilan tanishtiradi.
2. Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo`llash. Odatda ekskursiyalarda o’quvchilarni o’quv rejasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay shoroit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o’quvchilarni kasb tanlashga yo`llash uchun foydalalanish mumkin. Ayniqsa ishchilar o`zlari yasaydigan narsalarni mahsulotlarni ko`rsatsalar juda yaxshi ahamiyatga ega bo`ladi.
3. To`garak mashg`ulotlarida kasb tanlashga yo`llash. To`garak mashg`ulotlarida o’quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko`proq imkoniyatlar vujudga keladi. Yog`och bilan gazlama texnik ijodkor va xakozo to`garaklar.
4. Ishlab chiqarish ilg`orlar maktabini bitirgandan so`ng ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar. Odatda mazkur maktabni bitirgandan keyin sanoat korxonalarida ishlayotgan kishilarning chiqishlari o’quvchilarda katta ta’surot qoldiradi. Mehnat ta’limi jarayonida o’quvchilar tanishadigan kasblar ancha ko`p. Ishlab chiqarish ilgorlari bilan uchrashuvlar ko`pincha tantanali vaziyatda o`tadi.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o`tkazish. Kasb tanlashga yollash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan «Kasb haqida kim ko`proq biladi» mavzusiga bag`ishlab konkurslar otkazish. « Kasblar dunyosi, kasb tanlashda shaxsiy va jamoat fikri » mavzusida munozaralar uyushtirish kinofilmlarni muhokomaq shular jumlasidandir.
6. Kasblarni chuqur o`rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to`grisida tasavvur berish uchun bir yo`la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashkari yo yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo`lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab gruppalarga yoki klublarga birlashtiradilar. Bunda ish turli-tuman. Tashkiliy formalari qo`llaniladi. O'quvchilar o`z kuchi bilan referatlar yozadilar. Ekskursiyalar o`tkazadilar.
7. Fakultativ mashgulotlar. Ayrim maktablarda fakultativ mashg`ulotlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yo`llash ishi uchun foydalaniladi.

## MAVZU:Mehnat darslarida qo`l mehnatidan foydalanish talablari

REJA:

1.Qo'l mehnatining usul va vositalari.
2.Qo'l mehnati ishlarida ish o'rnini tashkil etish
3.Ish jarayonida xavfsizlik qoidalari

Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab, ular yordamida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallab olishlariga, shunungdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini eslashlari talab etiladi. Biroq, asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishda va unga sayqal berdi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo'l mehnati darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchilar tarqatadi. Stolning ustida diqqatni chalg`itadigan hech qanday ortiqcha narsa bo`lmasligi kerak.

Asboblarni, ayniqsa kesuvchi asboblarni charm g`ilofda saqlagan ma'qul. Har bir g`ilof asbobning ma'lum turiga mo`ljallangan boladi. Navbatchi o`qituvchi

asboblarni tarqatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda  o`quvchilar tartib va tejamkorlikka o`rganadilar.

Hamma foydalanadigan  asboblar sinf shkaflarida saqlanadi, ishdan so`ng asboblarni o`quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o`quvchiga topshiradilar.

Ish xonasida o`quvchilarga  asboblarni ishlatish va saqlash qoidalarini eslatib turuvchi plakat – eslatmalar osig`lik bo`lishi kerak. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga to`liq rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish qoidalarini o`quvchilar vaqti-vaqti bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu qoidani tushuntirishda o`qituvchi nima uchun aynan shunday qilish kerakligini, bu qoidalarga rioya qilinmasa qanday hodisalar ro`y  berishi mumkinligini uqtirishi lozim. Xafvsizlik texnikasining barcha qoidalari sozsiz bajarilishi lozim.

Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo`yicha texnika xavfsizligi qoidalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Ish xonasiga faqat p`qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o`quvchi faqat o`z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa ravishda qilinadigan bo`lsa, o`quvchilar o`z  majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o`qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyini tayyorlash, asboblarni to`g`ri  va qulay joylashtirish:  O`ng qul bilan ushlanadigan asboblarni o`ng tomonga, chap qo`l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo`y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni hech qachon ikkita asbob orasiga qo`yma, ularni doimo o`z joyiga, o`tkir tomonini narigi, dastasini o`zing tomonga qilib qo`y.  Asboblarni o`ynama, ular o`yinchoq emas.
5. Ish vaqtida ish joyingni tartibli saqla.
6. O`tmas yoki buzuk asbob bilan ishlama.
7. Asbobni ishlatganda, uni o`qituvchi ko`rsatganidek  ushla.
8. Asboblarni asra, ularni to`g`ri, o`z o`rnida ishlat, ishlatgandan so`ng ularni tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artadiganlarini artib qo`y.
9. Narsani, har bir detalni oldingi safargidan yaxshiroq, chiroyliroq, tartibliroq qilishga harakat qil.
10. Ishni tugatdingmi, ish joyingni tezda tozalab tartibli qilib qo`y.

## Turli asbob va uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari:

### *Qaychidan foydalanish qoidalari.*

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqla.
2. Qaychining uchini yuqoriga qilib ushlama.
3. Qaychini ochiq holda qoldirma.
4. Qaychini yurib turganingda ishlatma.

5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o`rtog`inga uzat.
6. Qaychini ishlatayotganda kesilishning yo`nalishi va materialni ushlab turgan chap qo`l barmoqlarini kuzatib tur.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatma, o`qituvchiga topshir.

***Bigizdan foydalanish qoidalari***.

1. Bigizni o`rinsiz ishlatma.
2. Sirti silliq, sirg`anchiq qattiq predmetlarni bigiz bilan teshma.
3. Teshiladigan predmetni qo`lingda ushlama, uni stol, taglik ustiga qo`yib tesh.

***Pichoq bilan ishlash qoidalari.***

1. Uchi yumaloq pichoqdan foydalan.
2. Pichoqni o`qituvchi kursatganidek ishlat, kesganda qattiq bosma.

***Nina bilan ishlash qoidalari***.

1. Ninani ishlatib bo`lgach, maxsus nina yostiqchaga sanchib qo`y.
2. Ninanni hech qachon og`zingga olma.
3. Zapas ninalarni ignadonda quruq holatda saqla.
4. Ishdan oldin va ishdan keyin ninalarni sanab ko`r, yetishmagan ninalarni albatta top.
5. Qogoz va kartondan narsalarni yasaganda birinchi teshikni albatta bigiz bilan teshib ol.

Ko`rilgan choralarga qaramay sinfda baxtsiz hodisa ro`y bersa, o`qituvchi birinchi yordamni ko`rsatishi va maktab vrachini chaqirishi lozim. Ish xonasida yod, bint solingan aptechka bo`lishi shart.

Boshlangich sinf qo`l mehnati darslari uchun o`quvchilar shaxsiy papkalarini qo`llanilishi 1-4 sinf o`quvchilariga qo`l mehnati darslarini metodik to`g`ri tashkil etish va ularni muntazam o`tkazish imkonini beradi.

Bunday papkalarning qulayligi shundaki, unda har bir o`quvchi dars vaqtida kerakli hamma narsalarga asbablar, materiallar, buyumlarga ega bo`ladi. Papka o`quvchilarga mehnat madaniyati malakalarini singdirishda yordam beradi. Shunungdek, papka o`quvchilarda o`z ish joylarini va mehnat jarayonini uyushtirish, ko`nikma hamda malakalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Bunday eng oddiy mehnat malakalarini o`quvchilarda birinchi sinfdagi dastlabki qo`l mehnati darslaridan boshlab shakllantira borish va ularni asta-sekin takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

SAVOLLAR.

1. Qo`l mehnatining usullari nima?
2. Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish bo`yicha qoidalari qanday?
3. Texnika xavfsizligi qoidalari nimalardan iborat?
4. Qaychi bilan ishlash qoidalari nechta?

**Mavzu: Boshlang'ich sinfda mehnat ta'limidan amaliy ishlar.**

REJA:

1.O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash.
2.Mehnat darslarida amaliy ish turlari
3.Mehnat darslarida amaliy ishlarning tashkil qilinishi.
4.O'quvchilar tarbiyasida amaliy ish jarayonining ahamiyati.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat dars mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog'oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hamda uy-ro'zg'or mehnati va shu kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar berib boriladi.

O'quvchilarga mehnat tarbiyasi berishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash operatsiyalarni eslab qolishga qodir emaslar.

Hosil qilingan ko'nikmalar takror mashq qilishlar natijasida takomillashib boradi. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni o'zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o'quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo'l asboblaridan foydalanishning o'ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarni qo'l mehnatiga o'rgatish quyidagi ish turlariga bo'linadi.

1.Qog'oz va karton bilan ishlash.

2.Turli materiallar bilan ishlash.
a) Applikattsiya va mozayka ishlari.
b) Loy va plastilin bilan ishlash.
v) Tabiiy materiallar bilan ishlash
3.Qog'oz va karton bilan ishlash.
4. Gazlama bilan ishlash.
5. Loyihalash va modellash ishlari.
6. Qishloq xo'jalik ishlari.

Dars boshida o'qituvchi biror mavzu bo'yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, ya'ni qayerda ishlatilishini tushuntiradi, so'ngra o'quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo'llaydilar.

Buyumni tayyorlash usullarini o'qituvchi sinf doskasiga osib qo'yilgan yo'llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib ko'rsatadi. Shundan so'ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o'quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o'tadi.

Yuqoridagilar kelib chiqib, mehnat ta'limidan amaliy ishlar tuzilishi quyidagi tartibda olib boriladi.

1. O'quvchilar oldiga mehnat topshirig'ining maqsadi va mavzusini qo'yish:

a) darslarda bajarishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;

b) belgilangan ishni yaxshi bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatish.

2. Ish o'rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarning tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarni eslatish.

3. Bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirish:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan o'lchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha o'lchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va o'qish, yahni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan o'lchovlar bo'yicha belgilab chiqish. O'quvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni ko'rsatib tushuntirayotgan o'qituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Belgilash ishlarini bajarish.Detallarni tayyorlash, detallarni moslash va uning barcha detallarini yig'ish; detallardan buyumni yig'ish jarayonida; buyum va uning detallariga ishlov berish jarayonida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallash.

6. Harakatlanayotganda tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

7. Darsga yakun yasash, yangi vazifalar qo'yish.

Mehnat ta'limida amaliy ish mashg'ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o'qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda mehnatga qiziqish va muhabbat singdirib boriladi. Mehnatga qiziqishning muhim talablaridan biri ishlanadigan buyumni to'g'ri tanlashdir. O'quvchilar tayyorlanadigan narsalarni nimaga kerakligi, qayerda ishlatilishini bilishlari kerak.

Bu ish turlarini barchasi boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati jarayoni o'quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materiallni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozada saqlashlari, mashg'ulotdan so'ng sinfni tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgani kabi mehnat darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shunungdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

SAVOLLAR.

1.O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash nima?
2.Mehnat darslarida qanday amaliy ish turlari bajariladi?
3.Mehnat darslarida amaliy ishlar qanday tashkil qilinadi?
4.O'quvchilar tarbiyasida amaliy ish jarayonini ahamiyati?

## Mavzu: Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

**Reja:**

**1. Applikatsiya sa'nati haqida tushuncha.**
**2. Applikatsiya turlari va ularning mazmuni.**
**3. Applikatsiya bilan ishlash darslarini tashkil etish.**
**3. Mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish.**

**Applikatsiya-** tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

**Applikatsiya** – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidar. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yin uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo'llash imkonini beradi.

**Dekorativ applikatsiya** – u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, xodisa, harakatlar uyg`unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo`lishi mumkin.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yakutlar applikatsiya ishida po`stloqdan foydalanishgan, bo`yalgan po`stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o`tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlar applikatsiyada teri, sukno, mo`yna ishlatishgan. Komi, qozoq, kalmik, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro`zg`or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikatsiyadan faqat bezash maqsadlarida ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hakozalarni bezashda ishlatiladi.

Applikatsiya bilan shug`ullanish o`quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo`l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o`stiradi. Rangli qog`oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog`oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo`yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya ishlarini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o`ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo`lgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikatsiyalardir.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

Applikatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. **Geometrik shaklli applikatsiya**
2. **Geometrik figuralardan predmetli applikatsiya**
3. **Ko'p rangli applikatsiya**
4. **Badiiy applikatsiya**
5. **Mavzuli applikatsiya**

**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. 1 va 3 sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyani bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylanani qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

2. Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.
3. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.
4. Bolalarni "ko'p, kam, uzunasiga, ko`ndalanggiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.
5. Bolalar ranglar uyg'unlagini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geomterik shaklli applikatsiyalarni ham **dekorativ-ornament, predmet, syujetli** applikatsiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli o`lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diogonal bo`yicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo`ylab tuziladi.

**Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar.**

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko`rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o`xshashligi, ularni qanday o`lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin.

Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartiblik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

**Ko'p rangi applikatsiyalar.** Ko'p rangi applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'ylagan asarga bog'liq. Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarninig tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarning bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilamay qirqiladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqiladi.

Ko’p rangli applikattsiyalardan biri dekorativ applikattsiyalardir. **Dekorativ applikatsiya** - naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg’unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo’lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materillardan olishlari, ayrim elementlarni qo’lda yaratishlari mumkin. Sharq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikatsiya bir va ko’p rangli bo’lishi mumkin.

**Badiiy applikatsiyalar.** Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Mehnat ta’limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarilish texnikasi o’rganiladi.

Rangdor surat applikatsiya mavzusining elementlarini o’quvchilar turli bayramlarga bag’ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo’l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq tondagi qog’oz fon tarzida tanlanadi. Applikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog’ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e’tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o’lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar xajmiga ko`ra eng katta detal mavzuli detal bo`lishi kerak.

**Syujetli applikatsiya.** Syujetli applikatsiya asariga ko’ra **oddiy va murakkab** bo’lishi mumkin. **Murakkab syujetli applikatsiya** – ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo’lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin.

Murakkab syujetli applikatsiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o’quvchining o’zi o’ylab topgan bo’lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo’lsa, unda avval syujetni rasmi, so’ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog`ozlardan qirqiladi. Agarda o`quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlagan rasmdan kora qog`oz yordamida nusxa ko`chirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, har bir detalni rangli qalam bilan atrofi chizib chiqiladi. Ularni qirqib olib, syujet yoki narsa detallari qog`ozga yig`iladi. Syujet yoki predmetning tabiiy ko’rinishiga putur yetmasligi uchun ularni qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

Kuchaytirish va kattalashtirish usuli yordamida rasmlardan kattalashtirib yoki kichiklashtirib applikatsiyadan foydalanish mumkin.

**Mavzuli applikatsiya.** Mavzuli applikatsiya ma’lum mavzuni aks ettirishi lozim u badiiy asr uchun illyustratsiya, applikatsiya plakat bo’lishi mumkin. Badiiy tematik applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy aniqliklarni, qismlarning o’zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug’lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko’rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Applikatsiya ishini bajarishda asosiy e’tibor uning umumiy ko’rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o’ylangan kompozitsiya, ya’ni tasvirlash lozim bo’lgan narsalarni joylashtirish applikatsiyaning muvaffaqiyatining garovidir.

Tasvirlash lozim bo’lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg’unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog’ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko'pincha ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi. Applikatsiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy tematik element bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o'quvchilari 8 – Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko'nikmalarini sinaydilar va rangli qog'ozdan ingichka oq va sariq to'g'ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog'ozdan doira qirqsa bo'ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo'lishi mumkin. Novdalar ham qo'lda qirqiladi.

Suhbatni o'qituvchi “8 Mart kuni” haqida olib boradi va bunda sovg'a masalasini eslatib o'tadi. Eng yaxshi sovg'a o'z qo'li bilan yasagan sovg'adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo'lishi mumkin.

Shundan keyin namuna ko'rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun qog'oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;
2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2sm atrofida kattaroq;
3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;
4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;
5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;
6. Och ko'k va jigar rang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;
7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza bo'yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi.

**Mozaika** monumental dekorativ sa'nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materialiga ko'ra ham, naqsh va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyo madrasalari, masjidlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental san'atga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari

va halq amaliy san’ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sapol plitalaridan foydalaniladi. Loasda rangli ko’zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo’shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog’oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po’sti va shu kabilar) qo’yib chiqishdir.

1.Tuxum po’stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib qo’ritilgan tuxum po’sti mo’yqalam yordamida akvarel bo’yoqlari bilan kerakli ranglarga bo’yaladi.

2. Bo’yoq qurigandan keyin tuxum po’stini tanlangan rasmga ko’ra mayda va yirik bo’laklarga bo’linadi.

3.Tuxum po’stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo’lmasligi kerak.

4. Kontur qora qog’oz orqali o’tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po’sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po’st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo’yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug’lari, danak, baliq tangalari, chig’anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin

SAVOLLAR.

1. Applikattsiya nima va u qayerlarda ishlatiladi?
2. Applikatsiya qayerda va qaysi xalqlar orasida paydo bo’lgan?
3. Applikatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
7. Mozaika qanday san’at turi va undan nimalar yaratiladi?

**Mustaqish ish topshiriqlari**

Applikatsiya haqida ma’lumot to’plash. Qog’ozdan applikatsiya tayyorlash

## Mavzu: Qog’oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini tashkil etish metodikasi.

**Reja:**

1. **Qog’ozning hozirgi kundagi turlari.**
2. **Qog’oz va kartonga ishlov berish usullari**
3. **Qog’oz bilan ishlashning mehnat darslaridagi ahamiyati.**

Birinchi sinfda o’quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg’ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to’qnash keladigan materiallar bilan ham tanishadilar. Bu barcha o’quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o’quv qo’llanmalari bosiladigan qog’oz turlar, yozadigan muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan kitob va gazeta qog’ozlaridir. Qog’oz va karton bilan boshlangich sinflar mehnat darslarida eng ko`p qo`llanadigan materiallardir. O`quvchilar bu materiallarga kundalik hayotda ham ko`p marta duch keladilar.

Mehnat darslarida foydalaniladigan qog‘oz turlari quydagilardan iborat:

**Ro‘znoma qog‘ozi** - eng ko‘p tarqalgan qog‘oz turlariga kiradi. Sifatiga ko‘ra unchalik pishiq emas, namlikni, elimni o‘ziga tez singdiradi.

**Yozuv qog‘ozi** – sathi silliq, elim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni ixtirolashda, muqovalashda, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulaydir.

**Chizmachilik qog‘ozi** – eng pishiq va qalin qog‘ozdir. Lattadan tayyorlanadi, uning oliy navi qo‘lda tayyorlanadi. Undan bayramalar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

**Rasm qog‘ozi** – ikki xil nomerli bo‘lib, sellyulozadan tayyorlanadi. Oliy naviga 25% latta qo‘shiladi. Chizmachilik chizishda, shunungdek, qo‘l mehnati darslarida foydalaniladi. Rangli va jiloli qog‘oz – mehnat darslarida keng qo‘llaniladi. Turli xil muqovalash ishlarida va turli xil rangda qog‘ozlar to‘plami chiqariladi.

**Yelimlangan qog‘oz** – jilo berilgan qog‘oz bo‘lib, bir tomoniga yelim surtilgan. Mehnat darslarida ishlatish uchun juda qulay materialdir.

**Rangli jild qog‘ozi**-turli ranglarda bo‘ladi, jilo berilgan rangli qog‘ozning o‘rnini bosa oladi. Qo‘l mehnati darslarida ko‘p ishlatiladi.

**Oboy gul qog‘ozi** – rangi va guli turlicha bo‘lib muqovalashda, narsalarning ustidan yelimlashda, bezash ishlarida keng foydalanildi.

**Millimetrli qog‘oz** - sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi.

**Karton qog‘ozi** – karton deb 1 kv m 250 grammdan ortiq bo‘lgan qog‘ozga aytiladi.

**Oq karton** – uni qirqish oson, o‘zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko‘p shimadi (ko‘pincha yelimdan shishadi). Undan mayda narsalarni muqovalashda foydalanish mumkun.

**Sariq karton** – oq kartondan ko‘ra pishiqroq, egiluvchan yaxshi qirqiladi, yelimdan shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.

**Kulrang karton** - oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Pichoq- karton massasidagi qumdan tez o‘tmaslashadi. Kartonning bu turidan o‘ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

**Rangli karton** - bu yupqa, egiluvchan, sathiga turli rangda jilo berilgan, ishlov berish oson va ko‘rinishi chiroyli. Hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash uchun qulay bo‘lgan karton turidir.

Ta’lim jarayonida o’quvchilar turli qog’ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g’adur-budurligi bilan tanishadilar. Ba’zi narsalarni tayyorlashda bolalar yelimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor yelimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, yelimlashni o’rganishlari kerak.

Qog’oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan o`zlashtirib oladilar. Qog’oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo`yicha mehnat ta’limida keng qo`llaniladi.

**Qog’ozni buklash usullari.** Qog’ozni teng ikkiga buklash uchun qog’oz stol yoki parta ustiga qoyiladi va o`ng hamda chap qo`li bilan qog`ozni o`ziga yaqin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda

qog`ozning uchlarining qirrasi bir-biriga to`g`ri tushishi kerak. Ana shundagina qog`oz qo`l bilan tekislanib, uning bukilgan chizigi ustidan tirnoq bosib yurgiziladi.

**Qog'ozni bukilgan joyidan yirtish.** Qog`ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o`ng qo`l bilan bosilib, chap qo`l bilan bukilgan chiziqdan sekin yirtiladi, Bukilgan chiziq ustiga chizgichni qo`yib, ham qog`ozni yirtish mumkin.

**Qog'ozni bukilgan joyini pichoqda qirqish.** Qog`ozni buklab, tirnoq bilan bosib iz tushiriladi. Shundan so`ng uning buklangan chizig`ini o`ng tomonga qilib stol ustiga qo`yiladi, uning orasiga pichoqni tiqib yurgiziladi.

**Qog'ozni qaychi bilan qirqish.** Qaychi o`ng qo`lda ushlanadi. Ish vaktida Qaychini xarakatsiz ushlab, kirkilayotgan qog`ozni, undagi kesish chizigi anik kurinishi uchun aylantirib turiladi.

**Qog'ozni yopishtirish.** Stolning ustiga gazeta yozib, uning ustiga kerakli o`lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog`oz qo`yiladi va mo`yqalam yordamida o`rtasidan chetiga avval chap, so`ngra o`ng tomonga qarab yelim suriladi. Yelimni tez, yupqa qilib suriladi. Yelim surilgan qog`ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo`yib, uning ustidan g`ijimlanishlar bo`lmasligi uchun toza latta bilan bosib tekislanadi.

**Qog'oz va kartonni o`lchash usullari.** Mehnat darslarida qog`ozni o`lchash usullari unchalik murakkab emas va ular matematika darslarida qo`llanadigan asboblar yordamida bajariladi. Birinchi navbatda bu oddiy chizg`ich, uchburchak chizgich va sirkuldir.

Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko'rinishidagi yig'ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yig'ma chizmani o'qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o'lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko'rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o'lchami shakli qanday bo'lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to'g'ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar oldindan quyidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni olib tayyorlaydilar. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerakli bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilganidek mehnat darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan mehnat darslarida turli xil namuna, rasm chiziq sxematik namuna turli predmetlarning shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek "Qog'oz va karton bilan ishlash" mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi

ko’rsatmali qurollardan foydalanish mumkin. Shu bilan o’quvchilar bu ko’rgazmalarni yasashni bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasalishini o’rganib borishlari mumkin.

**1.”Lola “ ko’rsatmali qurolli**.

**1.-Bosqich**.Rangli qog’ozlardan kvadrat qirqib olinadi. Uning diogonallari bo’yicha buklab, buklangan do’ppi shakliga keltiriladi.

**2.-Bosqich**.Buklashdan hosil bo’lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga yetkizdirib buklanadi. Xuddi shuningdek orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga karab buklanadi.

**3.- Bosqich**.Hosil bo’lgan shaklda cheti o’rtaga hosil bo’lgan chiziqqa tomon buklanadi. Shaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

**4.- Bosqich**.Oxirgi buklangan shakllarning har bir orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so’ng ularning uchlari bir biriga qaytarilib qayriladi.

Keyin shakilni pastgi ochiq tomonidan asta puflanadi. Shaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada “lola” shakli hosil bo’ladi. Lolaning bandini boshqa qog’ozni tsilindir shaklida o’rab, uni lolaning pastki puflangan qismiga kiritib qo’yish bilan tugallash mumkin. Bu bandga lolaning bargini g’unchasini ham yopishtirib qo’yish mumkin.

SAVOLLAR.

1.Qog’oz bilan ishlashning mehnat darslaridagi ahamiyati.

2. Qog’ozning hozirgi kundagi turlari.

3.Karton qog’ozi qanday qog’oz.

TOPSHIRIQLAR.

1. Karton turlarini keltiring.
2. Qog’oz turlarini keltiring.
3. Qog’oz va kartonning farqini ayting.

## Mavzu: Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.

**REJA**

**1. Turli materiallar haqida tushuncha.**

**2.Turli materiallar bilan ishlash texnologiyasi.**

**Tayanch so‘zlar:** Turli materiallar, metall va qotishmalar, qora metall, rangli metallga, sim bilan ishlash, plastmassalar, organik shisha, paralon, penoplast, loy, plastilin.

O’zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog’ochlar va o’simliklarga boy o’lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xom ashyo bo’lishi bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo’lib ham xizmat qiladi.

O`quvchilarni ilk yoshligidan boshlab bolalarda ona tabiatga qiziqish va muxabbatni, undagi go`zalliklarni ko`ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g`oyasini, tushunchalarning aniqligini uygotadi.

Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko`nikma, malakalarini beradi.

Turli tabiiy materiallarni to`plash o`qituvchi qo`ygan maqsadga bog`lik bo`ladi. O`quvchilr ko`rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o`zlari o`ylab topgan tasvir uchun material to`playdilar va aksincha, avval qandaydir materialni to`plab, keyin qanday ish bajarishni aniqlashlari kerak.

**Metall va qotishmalar.** Metall so`zi grekcha yerdan qazib olaman degan mazmunda bo`lib, u dastlab kon, qazilma, degan ma'nolarni anglatadi. Qadimgi dunyo xalqlari faqat oltin, kumush, mis, qalay, qo`rgoshin, temir, simob kabi 7 ta metallnigana bilishgan.

Mehnat darslarida metall va qotishmalardan ham foydalanadilar. Metallar o'zlarining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, egiluvchanligi, issiqlik va elektr o'tkazishi, suvga bardoshliligi, eruvchanligi va cho'kuvchanlik xususiyatlariga ega. O'quvchilar rangli metall va qora metall turlarini bilishlari kerak.

**Qora metall** – temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo'ladi. Bularga: Po'lat, cho'yan, temir, tunuka kiradi.

**Rangli metallga** – mis, alyumin, qo'rg'oshin, jez, qalay va boshqa metallar va ularning qotishmalari kiradi.

Metall bilan ishlanadigan asboblar: Taxta qilingan metallni qirqishda maxsus tunuka qaychilari kerak bo'ladi. Simni o'tkir ombir bilan qirqiladi. Metallarni mustahkamlovchi va boshqa ishlarda bolg'a, egov kabi asboblar qo'llaniladi. Metallga ishlov berishda xavfsizligi texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur

**Sim bilan ishlash**. Turli xil narsalarni yasashda xilma-xil simlardan foydalanish mumkin. Sim to'qish va o'rib olish uchun yaroqlidir. Qattiq po'lat yoki alyumin simdan texnik modellashda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobil o'qlari, suv parragi, o'yinchoqlar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi. Ishlab chiqarilayotgan simlar diametri 0,005 dan 17mm gacha bo'ladi. U asosan dumoloq kesimli bo'ladi, Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shaklidagi simlar ham bo'ladi. Simlar turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, elektrodlar, ingichka parma, musiqa asboblari uchun torlar yasash va shu kabilardan foydalaniladi.

**Plastmassalar.** Plastmassalar su'niy olinadigan modda bo'lib, sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, organik oyna, paralon, polietilen va shu kabi xilma-xil to'qimalarni ishlab chiqaradi. Plastmassalar juda yengil va shu bilan birga bukiluvchan va elastikdir. Ayrim plastmassalar o'ta mustahkam bo'lib issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi, kislotalarga bordoshlidir. Plastmassaga ishlov berishda deyarli chiqindi bo'lmaydi. Mehnat ta'limi amaliy mashg`ulotlarida topilishi

oson bo'lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalaniladi. Bular: organik shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir

**Organik shisha -** Organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan su'niy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va yelimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

**Paralon –** Su'niy yo'l bilan olinadigan material bo'lib, g'ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda yengil, yaxshi bo'yaladi, suv ta'sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina materillarga yopishtirish mumkin.

**Penoplast -** Anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

**Linoleum** – Qurilishda keng qo'llaniladi. Bu turli smolalar, alifmoy, maydalangan po'kak, turli bo'yovchilar va boshqa materiallar aralashmasidan olingan suhniy materialdir. Linoleumning qalinligi 2,5 mmdan 5mmgacha bo'ladi.

**Teksolit –** ko'p qavatli gazlamadan katta bosimda presslanib tayyorlanadigan suhniy plastmassa juda pishiq xususiyatga ega. Undan shesteryonka, roliklar, podshipniklar uchun vkladishlar tayyorlanadi.

**Ebonit –** maxsus usulda ishlov berilgan rezina, Ebonitdan har xil turdagi elektr asboblari tayyorlanadi, u sinuvchan, shunung uchun ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

**Yog'och –** eng ko'p tarqalgan materil bo'lib, o'quvchilar mashg'ulotlarda ko'p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

**Qarag'ay -** ko'p tarqalgan ishlov berish oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo'ylab randalanadi.

**Qoraqarag'ay** – yaxshi ishlanadi, uning yog'ochi oq rang bahzan sarg'ish bo'ladi. Qoraqarag'ay tuzilishiga ko'ra qarag'aydan yumshoq va yengil. Biroq qoraqarag'ayda butoqlar ko'p quriganda yorilib ketadi.

**Qayin –** Qarag'ayga nisbatan pishiqroq va og'irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg'ish tovlanuvchan oq-sariq rangda bo'ladi.

**Eman** – yog'ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og'ir, chiroyli jigar rangga ega.

**Toqterak** – asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Yog'ochi yumshoq anchagina yengil.

**Jo'ka –** yog'ochi yumshoq, aralash oson, pichoq bilan oson ishlanadi, darz ketmaydi. Jo'kani yorish qiyin. Qarag'ay va qoraqarag'aydan yengil sarg'ish oq rangda.

**Fanera** – Yog'ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar – yog'ochning payraha qilingan yupqa qatlamlari yelimlab yasaladi.

**Mozaika** - buning uchun yupqa yog'och plastinkalardan tasvir yig'iladi va keyin ularni asosga yelimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

**Loy -** Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko'rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko'p qum bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati

yomon bo'ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo'yib, 5-6 soat saqlanadi. So'ngra suvi to'kib, qo'lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

**Plastilin –** narsalar yasashda qo'llaniladigan materialdir. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil–oddiy va murakkab turlari bo'lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmadigan quyuq massa hosil bo'lgancha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasini qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchunchi variant - 1 qism tuprog'iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi.

**Mum –** Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan ham foydalaniladi. Mum tabiiy va suhniy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qo'lay, u qo'rimaydi, suv bilan namlashni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

**Turli materiallar bilan ishlash**. Turli materiallar bilan ishlaganda chiqindi materiallari: po'kak, qutichalar, plastmassa idishlar foydalaniladi.

Mashg'ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlar: o'lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilarni e'tiborga olish kerak. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, ular bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirsin, tasavvur qilishga o'rgatsin. Turli materiallarning texnologik xususiyatlari shunday xilma-xilki, narsalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak beruvchi material sifatida ham foydalanish mumkin.

Turli materiallardan o'yinchoqlar, yodgorliklar, ko'rgazmalar, ro'zg'or uchun foydali buyumlar va boshqa buyumlarni yaratish badiiy modellashtirishga yaqinlashib ketadi, bolaning estetik hissiyotlari va badiiy moyilliklarini o'stirishga yordam beradi.

Bu ishlarni bajarish jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar hamda mustahkamlaydilar:

1. Turli tabiiy materiallar hamda ularni to'plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Atrof muhitni muhofaza qilish.
2. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalari.
3. Buyum uchun atrof muhitdan obyekt tanlash.
4. Predmetni tahlil qila bilish. Detallar uchun material, shuningdek ularga ishlov berish uchun asboblar tanlash.
5. Mustaqillikni, fantaziyani namoyon qilish. Ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.
6. Boshqa materiallar bilan tanishish.
7. Obrazlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.

8. Metallga ishlov berish asboblari bilan tanishish.

Jarayon bosqichlarini taqsimlay olishni, umumiy maqsadni hisobga olgan holda o‘z faoliyatini rejalay olish qobiliyatini bolalarda shakllantirish uchun jamoaviy ishning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jamoaviy mehnat bolalarda jamoalik, do‘stona munosabat, o‘zaro yordam, birodarlik kurtaklarini shakllantiradi. Jamoaviy mehnatning natijalari, ayniqsa kattalar tomonidan quvvatlanib bolalarga qanot bag‘ishlaydi, ularni yangi buyumlar yasashga undaydi. Har bir ishga ko‘tarinki ruhda kirishadilar. Shunday ekan, tarbiya va ta’lim jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, turli tabiiy material bilan ishlash bolalarni barkamol o‘stirishda samarali vosita bo‘lib qoladi.

SAVOLLAR.

1. Mehnat darslarida metallning ahamimyati qanday.
2. Neorganik moddalar qaerdan olinadi.
3. Yog’ochning turlari qanday.
4. Turli materiallar bilan ishlashning ahamiyati qanday?

TOPSHIRIQLAR.

1. Turli materiallarning mazmunida namunalar keltiring.
2. Dars ishlanmasini keltiring.

## Mavzu: Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

**REJA**

**1.Tabiiy materiallar haqida ma’lumot**
**2.Tabiiy materiallarni to’plash**
**3.Tabiiy materiallarni ishga tayyorlash**
**4.Tabiiy materiallar bilan ishlash texnologiyasi**

**Tayanch so‘zlar:** Tabiiy material, turli material, barg, urug‘, quritish, gerbariy, pressda quritish

O‘zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog‘ochlar va o‘simliklarga boy o‘lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xomashyo bo‘lishi bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo‘lib ham xizmat qiladi.

O‘quvchilarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g‘oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg‘otadi.

Turli tabiiy materiallarni to‘plash o‘qituvchi qo‘ygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan tasvir uchun material to‘playdilar. Yoki aksincha, avval turli barglarni to‘plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Tabiiy materiallarni o‘quvchilar dastlab o‘qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to‘playdilar. Tabiiy materillarni to‘plash jarayonida o‘quvchilar atrofdagi o‘simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallarni qachon va qanday to‘plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo‘riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni asrash masalalariga alohida e’tibor berish har bir o‘quvchining burchidir.

Mehnat darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari – qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar – olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilar, baliq tangalari va qanotlari, jo‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Tabiiy materillarni to‘playotgan har bir o‘quvchi tabiiy materiallarni tartibli yig‘ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to‘plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo‘pollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni o‘ylamasdan uzish tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni qo‘l bilan sindirib bo‘lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin.

O‘simliklarni to‘plashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo‘lishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Quritib olishga mo‘ljallangan o‘simliklar har qanday namlikdan holi bo‘lishi kerak, aks holda o‘simlik quritilganda unda dog‘larning izi qoladi. Quritilayotgan o‘simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni shamol utib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak.

**Gerbariy ramkalarida quritish.** Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi. Har bir varaq qog‘oz va o‘simlik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simlik o‘zidan namlik chiqaradi. Shundan so‘ng papka ikkita to‘rsimon ramka o‘rtasiga qo‘yilib, ochiq havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, o‘simlik issiq va quruq joyga olib quritiladi.

**Pressda quritish.** Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlar o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘rilik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

**Issiq dazmol bilan quritish.** Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasiga o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o‘simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazeta yopib yana dazmollandi. O‘simlik 2-3 minutda quriydi va u o‘zining tabiiy rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik ko‘tarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan

hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

**Barglar**. Barglar o‘yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo‘shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarda bo‘lishi mumkin. Eman daraxtlarning yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanoatlari, baliq suzgichlarini (bu o‘yinchoqlar g‘udda va bargdan yasaladi) yasashda qo‘llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo‘lganida terish yaxshi.

Darsda foydalaniladigan tabiiy materiallar o‘qituvchi rahbarligida ekskursiya jarayonida to‘planadi. Ekskursiyani uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ishnamunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan tabiiy materiallar, ya’ni bargning shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya yo‘nalishi, tabiiy materiallarni to‘plash uchun mo‘ljallangan joylar aniqlanadi.

O‘quvchilar e’tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar ro‘yxati tuziladi. Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari, shakllari bolalarni ajablantiradi. Ular tabiatning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar.

Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e’tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli bayon etib beriladi: o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qish fasliga tayyorgarlik ko‘rayotganligi bilan tanishadilar.

Bolalarning e’tibori atrofda uchib yurgan qushlar, kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi, Uchib yurgan qushlar, ularning tuzilish formalari haqida, mehnat darslarida qushlar applikatsiyasini tayyorlash uchun to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglarini, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va diqqat qilish qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg‘ulotlarigacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e’tiborini insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etish kerak.

Ekskursiya oxirida suhbatga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga uylarida qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni, suratlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakliga, rangiga alohida e’tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar quritilgan barglardan qush applikatsiyasini zo‘r ishtiyoq bilan bajaradilar, agar applikatsiyalar o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday dars, mashg‘ulot quyidagi sxemaga ega bo‘ladi.

***Ishni bajarilish tartibini aniqlash:***

1. predmetning qismlari joylashishini grafik tasvirlash;
2. predmetning qismlari uchun shakli hamda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan barglarni topish;
3. ularni qog‘ozga joylashtirish;
4. ishning bajarilish texnologiyasi haqida tushuntirib berish;
5. ishni amaliy bajarish.

***Applikatsiyani bajarish bo‘yicha mustaqil ish:*** 1. shaklni, o‘lcham va bo‘yoqlarni to‘g‘ri tanlash;

2. yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
3. detallarning joylashishini to‘g‘ri tasvirlash;
4. ish bajarilgan qog‘ozning orqasiga barglaridan foydalanilgan daraxt yoki o‘simliklarining nomlarini yozish.

***Bajarilgan ishning tahlili va baholash:***

1. ish bajarilishida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash;
2. xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘irlash;
3. namunali, sifatli va chiroyli bajarilgan ishlarni rag‘barlantirish.

Bargning xususiyatlari va shakllari shunday xilma-xilki, applikatsiyalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsalarga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni bajarish o‘quvchilarni estetik didini, tasavvurini oshiradi va ijodiy izlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko‘nikma va shaxs xislatlarining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, o‘quv fanlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ijodiy yondashish, ta’lim jarayonini integratsiyalash asosida tashkil etishga zamin bo‘ladi.

**Urug‘lar**. O‘yinchoq uchun tabiiy materiallarga qimmatli qo‘shimcha bo‘lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug‘lari xizmat qiladi. Masalan: zarang, shumtol urug‘lari. Bolalarga ular qanotchalar sifatida tanishtiriladi. Ulardan ninachi qanotlarini, quyon quloqlarini, baliq suzgichlari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug‘laridan ko‘zlar yasash mumkin. Urug‘larni kuzda yig‘ish yaxshiroq.

• Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;

• ochiq tondagi qog‘oz va fon tanlanadi;

• applikatsiyaga mo‘ljallangan tasvir uchun urug‘lar tanlanadi;

• tasvir ustida ishlanganda asosiy e’tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;

• tasvirlash lozim bo‘lgan predmetlarning holati aniqlanadi;

• tasvirlanadigan urug‘ ranglari va hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi;

• tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug‘dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak;

• urug‘lar qog‘oz sathiga joylashtiriladi va o‘ylangan tasvir hosil qilinadi;

• agar bu tasvir ma’qul bo‘lmasa, urug‘lar boshqacha joylashtiriladi;

• urug‘larni yelimlashda PVA yelimidan foydalaniladi;

• tasvirning kerakli qismi yelimlanadi va urug‘lar yopishtiriladi;

• urug‘larni yelimlashda qisqichlardan foydalaniladi;

• urug‘larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o‘rnini qalam bilan belgilab qo‘yiladi;

• urug‘lar yelimlab bo‘lgandan so‘ng quritish uchun qo‘yiladi. Quritishda yelvizak bo‘lmasligi kerak.

**Somon** texnikasi yangi yo‘nalish bo‘lganligi uchun asta-sekin yoshlar tomonidan o‘rganilmoqda. Ayniqsa bu sohani imkoniyati cheklangan bolalarga o‘rgatish quvonarli hol. Chunki ular ish jarayonida o‘zlarining nogiron ekanliklarini unutib, yaratayotgan namunalaridan zavq olishadi va hunar egasi bo‘lishadi.

1. Avvalo xomashyo sifatida somon kerak bo‘ladi. Aynan bug‘doy yig‘ini boshlangan vaqtda somonning kerakli, ya’ni tepa va pastki bandlari alohida yumshoq hamda qattiqligiga qarab, qirqib olinadi. Chunki, tepa qismi quyosh nuriga yaqinligi uchun qizarib, to‘qroq, pastkisi esa salqinlikda ochroq rangda bo‘ladi. Ushbu qalamchalarni bunday ajratishning boisi, ular asar tayyorlash jarayonida o‘z o‘rniga moslab qo‘llaniladi.

2. Yig‘ib olingan qalamchalar 1 kun davomida suvga solib qo‘yiladi va ular ho‘l nam holicha olinib, qattiq bosib, birma-bir dazmol qilinadi. Ushbu sohani tanlagan hunarmand nafaqat o‘z ishini bilishi, balki tasviriy san’at yo‘nalishini ham puxta egallashi lozim. Asar uchun eskiz tayyorlashda bu juda asqotadi.

3. Endigi navbat chizmaga. Qog‘ozga o‘ylangan kompozitsiya chizib olinadi va ushbu eskiz oddiy qog‘ozga ko‘chiriladi. Eskizning har bir qismi alohida alohida qirqib olinadi.

4. Dazmollangan somon qalamchalari kompozitsiyaning kerakli, ya’ni issiq, sovuq, soya, nur kabi joylariga moslab qog‘oz ustidan yelim yordamida yopishtirib chiqiladi.

5. Yaratilgan asar janriga ko‘ra, unga ishlov beriladi. Masalan, bolakay obrazi bo‘lsa, uning yuziga ifoda berish maqsadida maxsus kuydirish uskunasidan foydalaniladi. Bu uskuna yordamida asar xuddi rassom chizgandek tasvirlanadi.

Alohida ishlangan kompozitsiya o‘zaro birlashtiriladi va qora mato yoki somon qalamchalaridan tayyorlangan tag qismiga yopishtiriladi. Hajmiga qarab, ramkaga solinadi. Asosiysi, ular hech bir ranglarsiz ustaning mahorati ila asar sifatida yaratiladi.

Rangsiz kompozitsiyalar ranglilaridan farqli ravishda yaratilishi, kuydirilishiga ko‘ra ancha murakkab hisoblanadi. Rangli qilish mumkin, ya’ni somon ustidan bo‘yoq beriladi. Latviya, Belorussiya, Litva va Rossiyaning turli shaharlarida somonchilik na’munalaridan aynan rangli qilib tayyorlanadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar ona tabiat bilan yaqinlashishga, unga tejamkorlik va mehribonlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi.

**Tabiiy material** – bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. O‘quvchilarga o‘yinchoq va buyumlar yasashda ulardan qanday foydalanishni o‘rgatish zarur. Shu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etiladi. Tabiiy materiallar burchagini sinfxonada, uyda tashkil etish mumkin. Tabiiy materiallardan buyum va o‘yinchoqlarni tayyorlash – qiziqarli, oddiy bo‘lmagan va juda yoqimli mehnatdir.

Tabiiy materiallarni to‘plash, saqlash va ularga ishlov berish tabiatshunoslik darslarida egallangan bilimlarni qo‘llash hamda ularni mustahkamlash imkonini beradi.

O‘quvchilar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong‘oqlar, barglar, shoxchalarni, ko‘l, hovuz qirg‘oqlaridan – chiroyli toshchalar, chig‘anoqlarni olib kelishadi. O‘quvchilar tabiiy to‘plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko‘radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o‘rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong‘oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g‘adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho‘chqa yong‘og‘ini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang bo‘lishini bilib oladilar.

Tabiat bilan bo‘lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrok va tasavvurning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda o‘quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz mehnat natijasida bolaning o‘ziga ishonch, aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo‘ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, boshida bolalar namunani ko‘rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o‘zlashtirgandan so‘ng ish murakkablashadi. O‘quvchiga tayyorlanadigan o‘yinchoqning rasmi yoki foto surati ko‘rsatiladi va ular topshiriq yoki o‘zining o‘ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar.

O‘yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustahkamligini oshiradi. Erkin diqqat shakllanadi. Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko‘rib chiqib (ular simmetrik holda turishi, past ham, baland ham bo‘lmasligi, haqiqiyga o‘xshashi kerak) teshiklarini belgilash,boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko‘pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O‘yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo‘naltirish, mehnatda muloqat quvonchi, chiroyli o‘yinchoq yasash jarayonida

rohatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar yasash mehnati bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yinchoqni yasash oson ish emas. Uni yasashda noaniqlikka duch kelganda, o‘quvchilarga mustaqil ravishda uni bajarish yo‘llari o‘rgatiladi. Ba’zan biron-bir ishni yasash uchun kerakli o‘lchamda eman daraxtining g‘uddalarini tanlash, o‘yinchoq qismlarini o‘lchash yo‘llarini amalga oshirish va h.k. Kattalar yordami bilan bola omadsizlik sababini, ularni yengish yo‘llarini o‘rganadi. Shu asnoda unda maqsadga intilish, qati’yatlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi.

Ushbu mehnat turida o‘z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor.

Tabiiy materialdan o‘yinchoq yasash mehnati individual va jamoaviy bo‘lishi mumkin. Kattalar kabi bolalarga ham jamoaviy mehnat ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

**Savollar:**

1. Tabiiy materiallarga nimalar kiradi?
2. Tabiiy materiallarni to‘plash va ishga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
3. Tabiiy materiallar qayerda to‘planadi?
4. Barglarni quritish usullari qanday?

## Mavzu: Plastilin va loy bilan ishlash darslari tashkil etish metodikasi

**REJA**

**1. Loy va uning turlari**
**2. Plastillin va uning turlari**
**2. Plastillin va loy bilan ishlash mazmuni**
**3. Plastillin va loyga ishlov berish usullari**
**4. Plastillin bilan ishlash metodikasi**
**5. Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma’lumot.**

**Tayanch so‘zlar:** Plastillin, mum, loy, qayishqoq, qum, tosh, haykaltaroshlik

Boshlang‘ich sinflarda plastilin bilan ishlash mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg‘ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o‘tkazish har bir o‘qituvchidan mazkur soha bo‘yicha ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchilar o‘z ustilarida ko‘proq ishlashlari, haykaltoroshlik va sopolchilik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo‘ladi.

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o‘yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahramonlari yasaladi. O‘yinchoq –

dekorativ san’atning eng qadimgi turlaridan biri bo‘lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda san’at va madaniyatning rivojlanib borishiga ko‘ra o‘yinchoqlarning assortimenti, ularning obrazlari yildan yilga boyib bormoqda. O‘yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.

**Loy –** narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar – tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko‘rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi. So‘ngra suvi to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo‘lib, ayrim xususiyatlariga ko‘ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan, plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o‘zining qayishqoqlik xususiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun’iy plastik massa bo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil: oddiy va murakkab turlari bo‘lib, ularni tayyorlashning birnechta variantlari bor.

**Birinchi variant** – toza quyuq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo‘shiladi.

**Ikkinchi variant** - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasi qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yash mumkin.

**Uchinchi variant** - 1 qism tuproqqa1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi.

Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qo‘lda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va su’niy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Mehnat darslari uchun do‘konlarda ochdan to to‘q rangacha bo‘lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar, pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog‘och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo‘g‘on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, o‘lchov, chizg‘ich va burchaklar kabi o‘lchov asboblari modellarni chizish va o‘lchash ishlarida kerak bo‘ladi. Tayyor narsalardagi changlarni yo‘qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har xil mo‘yqalamlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

**Haykaltaroshlik** haqida qisqacha ma’lumot. Haykaltaroshlik – tasviriy san’at turlaridan biridir. San’atning bu turining xususiyati tasvirning hajmi – formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg‘iz tur emas. Undan tashqari, barelyef va gorelyef ham mavjud, relyef aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltaroshlik turlaridan idish-tovoq sathini, binolarning old tomoni, interyeri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo‘ladigan usullar:

1. Yumaloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.

2. Bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.

3. Shar yasash, so‘ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

4. Yassilash – sharchadan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.

5. Yumoloq shaklga keltirilgan shar bo‘lagining bir qismi cho‘ziladi.

6. Surish (yamash) orqali buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish. Loy va plastilin bilan ishlash mashg‘ulotlarini tashkil etish va ish joyini bekam-u ko‘st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir. Shuni qayd etish lozimki, O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitida narsalar yasash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni loydan bajargan ma’qul, chunki plastilindan yasalgan narsalar issiqda o‘z shaklini tez yo‘qotadi. Ishni oddiy predmetlar: sabzavot-mevalarni yasashdan boshlash kerak. Bunda tayyor namuna yoki rasm bo‘yicha ishlashni taklif etish mumkin. O‘quvchilar narsalarni yasash usullarini egallab olganlaridan so‘ng o‘yinchoqlar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga o‘tishlari mumkin.

**Savollar**

1. Plastilin qanday massa?
2. Plastilin qanday xususiyatlarga ega?
3. Plastilin qo‘lda qanday tayyorlanadi?
4. Loy qanday turlarga ega?
5. Loyning xususiyatlari qanday?
6. Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma’lumot bering.

**Mavzu: Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.**

**Reja:**

1.Gazlama va uning turlari

2. Gazlamaga ishlov berish usullari

3. Gazlama bilan ishlash metodikasi

**Tayanch so'zlar: gazlama, ip, chok, suniy tola,**

Respublikamiz mustaqillika erishgandan keyin to`qimachik, tikuvchilik korxonaliari keng miqyosda rivojlandi. Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan matolar tolaviy tarkibiga ko`ra **tabiiy** va **kimyoviy** tolali gazlamalarga bo`linadi.

Tabiiy tolali gazlamalarga –paxta. Zig`ir, jun, irak, tolalaridan olinadigan gazlamalar kiradi.

**Paxta-**g`o`za deb ataladigan o`simlik urug`ini qoplap turadigan ingichka tolalar bo`lib, to`qimachilik sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblanadi.

**Zig`ir-** poyaning lo`p qismidan olinadigan tola bo`lib, tarkibida selyuloza va boshqa aralashmalardan iborat bo`ladi. Zig`irning xossalari ham paxtanikiga o`xshash bo`ladi. Issiqni yaxshi o`tkazadi, tez quriydi, qizigan dazmolga yaxshi chidaydi, paxtaga o`xshab yaxshi yonadi.

**Jun-** bu junli hayvonlarning teri qatlamlaridan olinadi. Respublikamizda qo`y, tuya, echki, qoramol va quyon juni keng miqyosda ishlatiladi. Namni tez shimib, tez quriydi. Ho`llab dazmol qilinsa cho`ziluvchanligi o`zgaradi, olish va kirishish xususiyati bo`lgani uchun junni dazmollab qisqartirish cho`zish mumkin.

**Tabiiy ipak-** bu ipak qurti o`raydigan ingichka ip. Ipakka eritmalar ishqorlar ta'sir qilmaydi. Ipak bo`yalganda tolalariga suv uzoq ta'sir etsa rangi o`chadi. Quyoshda tez rangsizlanadi. Junga o`xshab tez yonadi.

**Kimyoviy tolali gazlamalar** ikkiga: **sun'iy** va **sintetik** tolali gazlamarga bo`linadi. **Suniy tolali** gazlamalar tabiiy tola gazlamalarni qayta ishlash orqali olinadi. Bu ishlovlarda, quyoshga chidamliligi, gijimlanuvchanligi, kuyaga qarshi chidamliligi, tashqi ko`rinishi singari ayrim xossaliri yaxshilanadi. Viskoza tolali, misamiyak tolali, shisha tolali, metal ipli gazlamalar misol bo`la oladi.

**Sintetik tolali** gazlamalar esa tabiatda tola sifatida uchramaydigan, oddiy moddalarning molekulalarini biriktirish yo`li bilan olinadi. Ularga: kapron, lavsan, nitron xlorin, poletilinlar kiradi.

Gazlamalar tolaviy tarkibidan tashqari pardozlanishiga qarab ham sinflarga ajratiladi: **xom, oqartirilgan, bo`yalgan, gul bosilgan**.

Ayrim gazlamalar maxsus pardozdan o`tkaziladi. Gijimlanuvchanlikka qarshi qilib, suv yuqmaydigan, yonishga va chirishga chidamli qilib ishlab chiqariladi.

Tikuvchilikda ishlatiladigan gazlamalar, ko`ylaklik, kastyumlik, paltolik, plashlik va hakazolar uchun mo`ljallangan bo`ladi. Kiyim tikishda gazlamani tolaviy tarkibi xossalari hisobga olinishi lozim.

Agar lavsanli jun gazlamalarni ho`llab dazmollasa ayrim joylari kirishiladi, ketmaydigan dog`lar paydo bo`ladi. Kapron gazlamalar dazmolni tegizishi bilan erib ketadi .

Atsetat tolali gazlamalarga qizigan dazmol tegizishi bilan ketmaydigan yaltiroq dog`lar paydo bo`ladi.

Atsetat, triatseat tolali ipak gazlamalar ezilmaydigan yuvilganda kam kirishadigan va tez quriydigan gazlamalar bo`lgani uchun, ko`p dazmollanishni talab qilmaydi.

Trikataj gazlamalar yumshoq, elastik bo`lgani uchun yopishib turganda ham harakatga xalaqit bermaydi. Bu gazlamalar havo o`tkazmaydigan bo`ladi va namni ham tez shimib oladi.

Ko`p gazlamalarga (duxoba, chiy duxoba, astarli sarja, suniy shoyi, tipidagi gazlamalar,) namlab issiqlik ishlovi beriladi. Zig`ir tolali gazlamalarni teskari qilib xo`llab dazmol qilinadi.

Gazlamalarni bo`yash uchun asosan toshko`mirdan olinadigan sintetik bo`yoqlar ishlatiladi. Bo`yoqlar mayda kukun va pastalar tarzida ishlab chiqariladi. Gazlamani bo`yash uchun rangini yorqinligi, yorug`lik, nam, yuvish, ishqalanish ta'siriga chidamli, hamda gazlamalarning tarkibiga qarab bo`yoqlardan foydalaniladi.

Tikish darslarida beriladigan politexnik bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarni tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o'rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqariuvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli asboblar hamda moslamalar, asosan qaychi, igna va o'lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Gazmol bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o'z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko'nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o'sadi va takomillashadi. Gazmol, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o'quvchilarni ranglarni birikishi, gazmol va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e'tibor berishga o'rgatadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini darsda o'quvchilarni politexnik ta'lim bilan qurollantirish amaliy ishlar bilan birikib ketadigan qilib qurollantiradi. U darsda ta'limni o'quvchilarning faolliklarini, aqliy qobiliyatlarini o'stiradigan metod va usullardan foydalanadi.

1-sinf o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishlari kerak:

1. Gazmol haqidagi umumiy tushunchalar bilan tanitirish. O'simlik (paxta, zig'ir)dan tayyorlanadigan gazmollar haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Gazmolning tuzilishi, ulardagi iplarning to'qilishi haqidagi ilk ma'lumotlar beriladi.
2. Gazmollar asosan nimalarga mo'ljallanganligi bilan tanishtirish: kiyim-kechak, turmush narsalarga va shu kabilar.
3. Ishlatilishi (tikish, yamash, to'qish iplari) va yo'g'on-ingichkaligiga ko'ra farqlanadigan iplar bilan tanishtirish.
4. Tikish va to'qishda ishlatiladigan asosiy asboblar hamda moslamalar (nina, qaychi, angishvona, to'g'nog'ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish.
5. Sanchiluvchan asbob va moslamalarni ishlatganda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish. Tikish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalari, gigiena talablari.

6. Kerakli uzunlikdagi ipni o'lchash, uni qirqish yo'llari bilan tanishtirish (ularni tishlab, tortib uzishga yo'l qo'ymaslik), lentani o'lchash va qirqish.

7. Ip va tolaga ishlov berish usullaridan biri bilan tanishtirish.

8. Yo`g'on ip va toladan to'qishga o'rgatish.

9. Ninaga ip o'tkazish, tugun solish, ipni mustahkamlashni o'rgatish.

10. "Baxya", "chok" (biriktiruvchi va bezovchi) tushunchalari bilan tushuntirish.

11. Oddiy andazalar tayyorlash. O'qituvchi chizmasiga muvofiq to'g'ri burchak shaklidagi andazalar qilish.

12. Gazlamani andazaga ko'ra chamalash.

13. Gazlamani qaychi bilan qirqish usullarini tanishtirish.

14. Gazlamani qalam yoki bo'r bilan belgilangan to'g'ri yoki egri chiziq bo'ylab qaychida qirqishni o'rgatish.

15. Gazlamadan narsalar tikishni o'rgatish.

16. Tugma qadash usullarini o'rgatish.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar natural ipak va jun tolali materiallarni, to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishadilar. Namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andaza bichish olishni va gazlamaning xususiyatlarini (pishiqligi, egiluvchanligi, tuzilish) ni o'rganadilar.




SAVOLLAR.

1. Qanday gazlama turlari mavjud.
2. O'quvchilar qanday malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.
3. Qanday tikish asboblarini bilasiz.
4. Asboblardan qanday foydalaniladi.

## 1-muammoli masala

1 **1-misol.** Dars vaqtida faol ishtirok etgan, lekin uy vazifasini sifatli bajarmagan o'quvchiga ijobiy baho qo'yilmaydi.

2 **2-misol.** O'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirgan, ushbu amaliy topshiriqni bajarish uchun ko'nikma va malakalarga ega, lekin bajargan ishini so'zlab ifodalay olmagan o'quvchiga 5 qo'ysa bo'ladi.

3 **3-misol.** Sinfdagi kuchli o'quvchilariga har bir darsda qo'shimcha topshiriq berish shart emas

4 **Sizning-cha, misollarda bayon etilganlar to'g'rimi? O'z fikringizni asoslang.**

## 2-muammoli savol

5 Gazlama bilan ishlashda ish unumini oshirish usullarini tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?

## 3-muammoli vaziyat

6 Tasavvur qiling: Mehnat darsida 3-sinf o'quvchilariga gazlamadan nina qadagich tikish o'rgatildi. O'quvchilar ishni mustaqil bajarishda. O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar tez va sifatli nina qadagich tikishdi. O'qituvchi bajarilgan ishlarni nazorat qilib o'g'il va qiz bolalarga bir xil baho quydi. Mazkur vaziyatda o'qituvchiga baho bering. Nimaga bunday vaziyat hosil bo'lgan. Qay biriga to'g'ri baho qo'ygan? Har birini alohida tavsif eting.

## "Toyifalash"jadvali
## Gazlama va uning turlari

| Tabiiy gazlama | Sun'iy gazlama |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Gazlama va uning turlarini o'rganing.
2. Gazlama va uning turlarini tahlil qiling.

## Mavzu: Yumshoq o'yinchoqlar yasash darslarini tashkil etish metodikasi.

**Reja:**

1. Yumshoq o`yinchoqlar turlari va ularning ahamiyati .
2. Yumshoq o`yinchoqlarni tikish tartibi.

O'yinchoqlar – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu aniq predmetning kichraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir. Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o'yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o'ynash ishtiyoqini tug'diradi. O'yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o'yinchoqlar bilan turli yoshdagi bolalar shug'ullanishlari mumkin. Aytishlaricha, yumshoq o'yinchoq yasab o'ynash faqatgina kichik bolalarga xos deb, lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki yumshoq o'yinchoqlar bilan faqat bolar emas, balki katta yoshdagi bolalar ham qiziqadilar.

Kichik o'quvchilar o'yinchoqlarning eng oddiy turlari, kattaroqlari esa qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqlarini turli holatdagi o'qinchoqlarni tayyorlaydilar. O'quvchilarga o'yinchoqlar yasashni o'rgatish uchun avvalo o'qituvchi o'zi bu sahnatni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. O'zi tayyorlagan chiroyli o'yinchoqlarni o'quvchilarga ko'rsatar ekan, ularda ham o'yinchoqlar yasash qiziqishi paydo bo'ladi.

Yumshoq o'yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O'yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o'zlari o'ylab qo'shgan g'oyalari uchun rag'barlantirishlari kerak.

Ishni tashkil qilishdan oldin quyidagi ashyolar va asboblarni tayyorlash kerak:

Asboblar:

1. Ignalarning turli katta-kichiklari.
2. G'altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mulina iplar.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi.
6. Bigiz.
7. Ombir.
8. Dazmol.
9. Angishvona.
10. Qalam.

Ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar zarur.

Hayvonlarni tayyorlash uchun tukli bumaziy, suniy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi.

Tana yuz ko'rinishini tasvirlovchi o'yinchoqlar uchun shifon, suniy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun suniy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averla qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashda ishni nimadan boshlash kerak. Dastlab bolalarni ignani ushlashdan, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishdan, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishdan boshlash zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir nechta ish tavsiya etiladi. (Ro'molcha tikish, xaltacha tikish va boshqalar). Bu esa bolalarni chok turlarini tikish malakasini egallashga shiroit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan keyin oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinasidan foydalanish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish izchilligi quydagicha bosqichlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim matoni dazmollash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi, bichishga mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib bichiladi, yaxshi ichi ochiladi, qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. Toq mato bo'lsa andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan och rangi mato bo'lsa qaro rangli qalamdan tayyorlanadi.

Chizib olingan mato har tomondan 0,5 sm chok uchun qoldirilib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklar o'ng tomonga chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayyoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa chok haqqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish qo'ydagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlari bir-biriga tikiladi. Formani ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Forma o'ngiga ag'darilib qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlari bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi.

O'yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1. guruh: Yengil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, marteshka qo'g'irchoq, pigvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa).

2. guruh: Qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq (Cho'chqa, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk sim sixga o'rnatilgan o'yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).

O'yinchoqlarni yasash bolalarni fikrlash qobiliyatini riojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishini tarbiyalaydi. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarga o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. SHunung uchun ularning mehnatlarini qadrlab va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, ehtiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

SAVOLLAR.

1. O'yinchoq qanday predmet.
2. Qanday gazlamalarni bilasiz.
3. O'yinchoqdan qanday andoza olinadi.
4. O'yinchoqni tayyorlash nechi xil guruhga ajratiladi.

# GLOSSARI

## GLOSSARI

| № | O'ZBEKCHA | РУСЧА | ИНГЛИЗЧА |
|---|---|---|---|
| 1. | **Mehnat** | **Труд** | **Handicraft** |
| | Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat, ish | Целеобразная деятельность человека, направленная на видоизменение и приспособление предметов природы для удовлетворение своих потребностей. | Adjusted to some aim mental and physical activity ,work. |
| 2 | **Jarayon** | **Процесс** | **Process** |
| | Oqimning borishi, sodir bo`lishi, ish- harakat, voqea-hodisaning birin –ketin borishi, rivoji | Последовательная смена явлений, состояний в разватии чего-нибудь. | Going the stream, happen starting the action and accident one by one. |
| 3 | **Ip** | **Нить** | **Thread** |
| | Paxta,xom ipak,zig`ir, jun va shaker tolasidan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagantikuv, to`quv materiali | Гипкое и прочное тело с малыми поперечными размерами, значительной длины для изготовления текстильных изделий.Вырабатывается из хлопчато-бумажной, шерстяной льняной пряжи, шелка-сырца, химических волокон. | Thin spinning and unspinning sewing and weaving material made of cotton raw silk, flax, wool and sugar thread. |
| 4 | **Murakkab** | **Сложно** | **Difficult** |
| | Yechilishi, tushunilishi, bajarilishi qiyin, og`ir, mushkul ish | Труднорешаемая, трудновыполнимая работа. | Unbind, nonunder-starding, heavily doing difficult work. |
| 5 | **Muqova** | **Переплет** | **Book cover** |
| | Kitob, jurnal, daftar shaklini yaxlit qilib biriktirib turuvchi, ichki varaqlarga nisbatan qalinroq materialdan yasaluvchi sirt qismi. | Крышка из картон, кожи, ткани, полимеров, в которую заключается книжный блок. | Combination the whole book, magazine note-book forms, surface which made from thick material than inside. |
| 6 | **Ishchanlik** | **Работоспосабность** | **Efficiency** |
| | Ishchan xususiyat, ishchan holat, mehnatsevarlik. | Энергичность, трудолюбивость, качество работо способности. | Diligert peculiarity deligent condition industrious. |
| 7 | **Model** | **Модель** | **Model** |
| | Biror narsaning xuddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab | Аналог чего- либо, который имеет уменьшенную или укрупненную форму самого | A model which can be measure of small and big something for |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ishlab chiqarish uchun andoza bo‘ladigan nusxasi. | оригинала. | developing. |
| **8** | **Iqtisodchi**. | **Рачительный** | **Economist** |
| | Tejab-tergab sarf etuvchi, sarf-xarajatni tejab-tergab bajaruvchi, tejamkor | Экономно использующий человек. | Economical person who economes everything savely. |
| **9** | **Malaka** | **Навык** | **Skill** |
| | Bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir. | Автоматизированная деятельность, сформированная в процессе упражнений. | It is an exercisely activity which embodied from process of experience. |
| **10** | **Applikatsiya** | **Аппликация** | **Application** |
| | Tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. | Создание художественный изображений наклеиванием, нашиванием на ткани и бумагу разноцветных кусочков какого-либо материала, изображение,узор, созданные таким образом. | Cut diffirent kinds of discribely technics and to receive them as science, strenghtening their base. |
| **11** | **Jismoniy mehnat** | **Физический труд** | **Physical labour** |
| | Insonning tana a’zolari orqali aqliy tafakkur bilan bajariladigan jismoniy harakatlar majmui. | Комплекс движений с помощью органов тела посредством умственного мышления. | Actions which fulfillid by persons body members and by thought. |
| **12** | **Bilim** | **Знания** | **Knowledge** |
| | O‘quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma’lumotlari. O‘quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma’lumotlar. | Владение учениками и студентами информации о природе, достижений общества, науки и техники. Теоретические знания передаваемые ученикам. | Possession of pupils and students about the nature and the achievements of the society, science and technology. Theoretical knowledge that’s transferred to students. |
| **13** | **Boshlang‘ich ta’lim** | **Начальное образование** | **Primary education** |
| | Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zR da boshlang‘ich ta’lim 1-4 sinflarda bolalarga ilk ta’lim berish, ularni ma’naviy kamol toptirishning boshlang‘ich davri hisoblanadi. | Первый этап общего среднего образования. В Республике Узбекистан начальным образованием считается период начального обучения и приобретения духовной зрелости детей в 1-4 классах. | The first stage of secondary education. In the Republic of Uzbekistan in primary education is considered an initial period of learning and spiritual maturity of children in 1-4 classes. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **14** | **Dars** | **Урок** | **The lesson** |
| | O‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadi va tugal mazmunidan iborat jarayon. | Учебный час или иной промежуток времени, установленный для проведения учебного занятия. | A unit, or single period of instruction in a subject. |
| **15** | **Darslik** | **Учебник** | **Textbook** |
| | Har bir o‘quv predmetining mazmunini darslikda ko‘rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob yoziladi. | Книга, предназначенная для изучения какого-либо учебного предмета. | The book is intended for the study of any academic subject. |
| **16** | **Ijodiy yondashuv** | **Творческий подход** | **Creativity** |
| | Bu pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo‘nalishlarini topishga undash jarayonidir. | Современный подход в педагогике, деятельность направленная на развитие способностей для решения проблем обучающихся. | The modern approach to teaching, the activities aimed at developing skills for solving problems of students. |
| **17.** | **Ko‘nikma** | **Навык** | **Habit** |
| | Insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. | Способность осуществления конкретной деятельности или действия, основанная на приобретённом опыте. | The abilite to perform specific activities or actions based on lessons learned. |
| **18.** | **Metod** | **Метод** | **Method** |
| | (Yunoncha-metodos – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) - voqeylikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. | От греч. methods- способ исследования, теория, учение – Приём или система приёмов, совокупность определённых операций над материалом, нацелённых на решение определённой, ясно очерченной задачи. | From the Greek, methods-way research, theory, doctrine – Accept or system of techniques, the collection of certain operations on the material, aimed at solving a specific, clearly defined objectives. |
| **19.** | **Savol** | **Вопрос** | **Question** |
| | Yechilishi lozim bo‘lgan masala. | Задача, требующая практического решения | Task that requires practical solutions |
| | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **20.** | **Tasavvur** | **Предстовление** | **Representation** |
| | Bo‘lgan va bo‘lmagan voqea va hodisalarni inson ko‘zi ochiq va yopiq holda ham o‘z tasavvurida bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. | Конкретный образ предмета или явления, который в данный момент непосретственно не воспринимается, а лишь воспроизводится в сознании. | The concrete image of an object or phenomenon, which is currently not directly perceived, but only played in the mind. |
| **21.** | **Tafakkur** | **Мышление** | **Thinking** |
| | Insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog‘liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne’matdir. | Способность человека мыслить, рассуждать, делать умозаключения; высщая ступень человеческого познания, процесса отражения объективной действительности. | A person’s ability to think, reason, make inferences, the highest stage of human cognition, the process of reflection of objective reality. |
| **22.** | **Ta’lim** | **Обучение** | **Education** |
| | Shaxsning jismoniy va ma’naviy kamol topish jarayoni, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo‘nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo‘lishga har tomonlama barkamolikka intilish jarayoni tushuniladi. | Процесс получения физической и духовной зрелости, стремление ко всесторонней гармоничности. | The process of obtaining the physical and spiritual maturity, commitment to a comprehensive harmoniously. |
| **23** | **Tushuncha** | **Понятие** | **Conception** |
| | Bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (ba’zan fikrlar) – tafakkur shakli. | Совокупность взглядов на что-либо. Уровень понимания чего-либо. | The set of views on anything. The level of understanding of anything. |
| **24.** | **Faoliyat** | **Деятельность** | **Activity** |
| | Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon). | Занятие какой-либо работой для определения чего-либо | The occupation of any work to determine anything. |
| **25.** | **Shakllantirish** | **Формировать** | **To form** |
| | Nasliy omillar, muhit, maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya va shaxsiy faollik ta’sirida insondagi bilim, ko‘nikma, malaka va fazilatlarni tarkib toptirish jarayoni. | Создавать, комплектовать знания, навыки, опыт и достоинство, придавать законченность, определённость. | Build, equip the knowledge, skills, experience and dignity, to give finality, certainty. |

# TARQATMA MATERIALLARI

**Chiqindi materiallar qanday material**

**Chiqindi materillarni ishga qanday tayyorlash lozim**

**Chiqindi materiallaridan ruzg‘or uchug nimalar tayyorlash mumkin?**

**Qanday chiqindi materiallardan buyumlar yasashda foydalanish mumkin?**

**Choynak tagligini qanday chiqindi materiallaridan foydalanish mumkin?**

# REBUS

P +  + n +  ’’’’

# REBUS

 +  + V +  + 

REBUS

 ’’ +  + 

+ 

REBUS

, , , , ,  +  + z

REBUS

G’ +  ’ + z

REBUS

 + u +  +  + 

REBUS

 +  + j + 

**To‘rtinchisi ortiqcha metod**:

| T/R | Viloyatlar | Qushlar | Yitrqich hayvonlar |
|---|---|---|---|
| 1. | Toshkent | Qarg‘a | Yo‘lbars |
| 2. | Samarqand | Delfin | Bo‘ri |
| 3. | Sirdaryo | Kalxat | Fil |
| 4 | To‘ytepa | Chumchuq | Sirtlon |

**1. Sinkveyn usuli:**

1-qator Mavzu bitta so‘z bilan ifodalanadi.
2-qator Ikkinchi so‘z qo‘shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.
3-qator Uchinchi so‘z kiritilib voqelik ochib beriladi.
4-qator To‘rtinchi so‘z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.
5-qator Bitta so‘z bilan umumlashtiriladi.
Masalan:
1-qator Suv
2-qator Suv erituvchi.
3-qator Uch holatda uchraydi.
4-qator Suv sayyoramizdagi yagona mineral.
5-qator Obi hayot.

**3.Zanjir mashqi:** O‘quvchilarning darsda o‘rganilgan mavzuni qismlarga bo‘lib, navbatma-navbat bayon etishlari orqali yaxlit bir ko‘rinishda umumlashtirish usuli.
Masalan:
1- O‘quvchi: Olma –darxt.
2- O‘quvchi: u meva.
3- O‘quvchi: uning- rangi qizil sarg‘ish yashil.
4- O‘quvchi: turli xil ichimliklar tayyorlanadi.
5- O‘quvchi: u-temir moddasiga boy
6- O‘quvchi: xar xil navi bor.
7- O‘quvchi: inson organizimiga juda foydali va muhim ahamiyatga ega, va hokazo davom etirish mumkin

## 4. Nima uchun metodi:




## 5.Toyifalash metodi.

| Suv havzalari | | |
|---|---|---|
| **Buloq** | **Suv ombori** | **Daryo** |
| Buloq - yer ostidan sizib chiqadigan suv. Ko‘rnishi ba’zan sokin, yoki favvoradek otilib chiqadi.Shifobaxsh mineral suv buloqlar ham bor. | Suv omborlar- insonlar tomonidan yaratilgan suv sun’iy suv havzalaridir. Daryo suvlarini tartibga solish, yozda sug‘orish, bahor, kuz va qishda suvlarni to‘plash uchun qurilgan. | Daryo bu – buloq suvning bir tomonga oqishida jilg‘alar irmoqlar bir-biriga qo‘shilib katta suv oqimini hosil qilib yuqoridan pastga oqadigan yirik suv oqimidir. Daryo insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega tabbiy manbadir. |

## 6.«Muammo» yoki (Panarama)

| **Muammo** | **Yuzaga kelish sababi** | **Salbiy oqibatlar** | **Hal etish yo‘llari** | **Shaxsan men nima qilshim mumkin?** |
|---|---|---|---|---|
| Suvsizlik | Toza ichimlmk suvidan tarbibsiz foydalanish, korxonalarning ko‘payshi va boshqalar. | Suvsizlik muammosi kasalliklarning ortishi va boshqalar | Tejamkorlik bilan foydalanish suvga nisbatan befarq bo‘lmaslik va boshqalar | Suv jumraklarini xar doim yopman, bekorga ifloslantirmayman va boshqalar |

## 7.«SINKVEYN» USULI

Sinkveyn – fransuzcha so‘z bo‘lib «besh» degan ma’noni bildiradi. Bu usul qatorlar usuli bo‘lib besh qatordan iborat. Har bir qatorga yozilgan so‘zlar bitta gap hisoblanib u keng ma’noni o‘ziga qamrab oladi.

1-qator Mavzu bitta so‘z bilan ifodalanadi.
2-qator Ikkinchi so‘z qo‘shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.
3-qator Uchinchi so‘z kiritilib voqelik ochib beriladi.
4-qator To‘rtinchi so‘z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.
5-qator Bitta so‘z bilan umumlashtiriladi.

Masalan:

1-qator Maqol
2-qator Xalq maqollari.
3-qator Xalq tafakkurning qaymog‘idir.
4-qator Inson nutqining jilosi.
5-qator Ibrat.

1-qator Atom. (1)
2-qator Kichik zaracha. (2)
3-qator Kicha Quyosh sistemasi. (3)
4-qator Bitmas tuganmas energiya manbai.(4)
5-qator Bo‘linuvchi.(1)

## 8.ZANJIR MASHQI

O‘quvchilarning darsda o‘rganilgan mavzuni qismlarga bo‘lib, navbatma-navbat bayon etishlari orqali yaxlit bir ko‘rinishda umumlashtirish usuli. Masalan:

8- O‘quvchi: kislorod-oddiy modda.
9- O‘quvchi: u rangsiz, hidsiz.
10- O‘quvchi: 218 darajada suyuqlanadi.
11- O‘quvchi: 183 darajada qaynaydi.
12- O‘quvchi: suvning tarkibida 2 ta atom kislorod bor.
13- O‘quvchi: 1774 yilda ingiliz olimi Jozef Pristal simob oksidini parchalab kislorod oldi.

O‘quvchi: kislorod nafas olishda organizmda kechadigan moddalar almashinuvida muhim ahamiyatga ega, va hokazo davom etirish mumkin

## 9.«KIM OSHDI SAVDOSI DARSI»

«Kim oshdi savdosi darsi» odatda, «auksion dars» nomi bilan ham yuritiladi. Bunday darslarni umumlashtiruvchi takrorlash darslarida qo‘llash ancha samarali hisoblanadi. Uni aniq va tabiiy fanlarda qo‘llash mumkin. Bunday darsni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilar auksiya qonun-qoidalarini yaxshi o‘zlashtirishlari kerak. Bunday darslarni quyidagi tartibda olib boriladi.

– Auksionga kirish, bilet olish uchun har bir o‘quvchiga shu o‘quv fani bo‘yicha o‘tgan mavzular yuzasidan avval 1 ta savol beriladi. Aniq javob bo‘lmasa, qo‘shimcha yana savol beriladi. So‘ngra o‘quvchiga auksionga qatnashish huquqi beriladi.

– Auksionni olib boruvchi sifatida a’lochi o‘quvchilardan biri tayinlanadi. U gong va bolg‘a bilan shu fanga zarur bo‘lgan asboblar qo‘yiladi. Masalan, matematikadan – geometrik figuralar yoki ularga mos buyumlar qo‘yiladi (gugurt, piramida, konserva, koptok, va x.k.). Geografiyadan (globus, kompas, trasportir, chizg‘ich va x.k.) sotuvga qo‘yiladi.

Auksionga o‘xshab har bir predmet uchun 1 tadan 10 tagacha shu fanga doir savollarga o‘quvchi javob berishi kerak. Masalan, globus- 8, ya’ni uni o‘quvchi qo‘lga kiritishi uchun 8 ta savolga javob topishi kerak. Agar boshqa ishtirokchi globus – 10 desa, uning narxi oshgan bo‘ladi. Qaysi auksion ishtirokchisi 3 gacha sanashda to‘g‘ri javob bersa, u yutgan hisoblanadi. Auksionda musiqali tanaffus e’lon qilinadi. G‘oliblar taqdirlanadi.

## 10.«Muammo» yoki (Panarama) treningi

| Muammo | Yuzaga kelish sababi | Salbiy oqibatlar | Hal etish yo‘llari | Shaxsan men nima qilshim mumkin? |
|---|---|---|---|---|
| Suvsizlik | Toza ichimlmk suvidan tarbibsiz foydalanish, korxonalarning ko‘payshi va boshqalar. | Suvsizlik muammosi kasalliklarning ortishi va boshqalar | Tejamkorlik bilan foydalanish suvga nisbatan befarq bo‘lmaslik va boshqalar | Suv jumraklarini xar doim yopman, bekorga ifloslantirmayman va boshqalar |

# TESTLAR

**511700 Boshlang'ich ta`lim yo`nalishi talabalari uchun Texnologiya va o'qtish metodikasi fanidan test savollari**

| Topshiriqlar | To'g'ri javob | Muqobil javob | Muqobil javob | Muqobil javob |
|---|---|---|---|---|
| **O'quvchilarni mehnatga axloqiy tayyorlash** | *Bolalarga jamoada ishlashni, o'zaro do'stona yordam berishni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iborat | O'quvchilarni mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi. | Mehnat ta'limi va tarbiyasi bilan o'quvchilarni mehnatga tayyorlash. | O'quvchilarni mehnat kishilariga va mehnat natijalariga yaxshi munosabatda bo'lish. |
| **Mehnatning psixologik komponentlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *Sezib-anglash, idrok, diqqat, xotira, tafakkur. | Diqqat, idrok, xotira, tafakkur. | Idrok, ko'rish, eshitish. | Sezib-anglash, psixomotor, emotsional, idrok, diqqat, xotira. |
| **Applikatsiya nima?** | *Turli shakllarni qirqish va ularni fontarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. | Sa'nat asari yaratishning eng sodda va oson usuli. | Qog'oz va kartondan yasaladigan maketlar. | Tabiatdagi mavjud bo'lgan barcha go'zallikni, borliqni yasash |
| **Mehnat ta'limida nechta ish turi mavjud?** | *5 ta ish turi | 10 ta ish turi | 7 ta ish turi | 6 ta ish turi. |
| **Mehnat darslarining tashkiliy qismida nimalarga e'tibor berish kerak?** | *Salomlashuv, davomatni aniqlash, darsga hozirlik ko'rish | Salomlashuv, davomatni aniqlash, yangi mavzuni tushuntirish | Salomlashuv, davomatni aniqlash | Salomlashuv, davomatni aniqlash, savol-javob |
| **Qanaqa qog'ozga karton deyiladi?** | *1 kv. metri 250 grammdan ortiq qog'ozga. | 1 kv. metri 250 grammga teng qog'ozga. | Bukilishi va qirqilishi qiyin qog'ozga. | Og'irligi 500 gramm bo'lgan qog'ozga. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Applikatsiyaning nechta turi mavjud?** | *5ta turi mavjud | 7 ta turi mavjud | 4ta turi mavjud | 6 ta turi mavjud. |
| **Mehnat darsida o'qitish necha usuldan iborat?** | *12 ta usuldan. | 10 ta usuldan. | 6 ta usuldan. | 5 ta usuldan |
| **Mehnat fanidan sinfdan tashqari ishlarning shakllari.** | *Ommaviy ishlar, to'garak ishlari, yakka tartibdagi mashg'ulotlarga qatnashish. | Darsdan tashqari bajariladigan ishlar, ommaviy ishlar, maktab ishlari. | Ommaviy ishlar, maktab ishlari, yakka tartibdagi mashg'ulotlar ga qatnashish. | Ommaviy ishlar, yakka tartibdagi ishlar. |
| **Mehnatga ruhiy tayyorlashni nimalar tashkil etadi?** | *Bolalarning yoshiga va qobiliyatiga mos keluvchi ongli va ijobiy mehnatga o'rgatish. | Bolani ijodiy mehnatga tayyorlash. | Bolaning yoshini, aqlini, imkoniyatini takomillashtir ish. | Mehnatga nisbatan aqliy va ruhiy imkoniyatlarini o'rganish |
| **Xoja Bahovuddin Naqshbandiy mehnat tarbiyasi haqida qanday fikr bildirgan?** | *Dil bayoru, dast bakor, ya'ni diling Allohda, qo'ling doim mehnatda bo'lsin | Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik. | Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'' sir, yo'iq eshiklarni ochar birma-bir. | Inson bo'lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasb egalla, hunar o'rgan. |
| **Mehnat darslarida ish joyini to'g'ri tashkil qilish.** | *Stol ustiga salfetka yozib, o'ng tomoniga kerakli asbob uskunalar cha' tomoniga kerakli materiallar to''lami, old tomoniga chiqindilar uchun quticha, yelim va sochiq qo'yiladi. | Stol ustiga qog'oz yozib darsga kerakli bo'lgan buyumlarni tayyorlab qo'yish. | Bolalarni harakatlariga halaqit bermaydigan qilib darsga kerakli ish qurollarini tayyorlab qo'yish. | Sanitariya-gigiena, texnika xavfsizligi, to'g'ri o'tirish qoidasiga amal qilish. |
| **Dars rejasini nimalar tashkil etadi?** | *Tashkiliy qism, asosiy qism, yakuniy qism. | Yangi mavzu, darsning yakuniy qismi. | Tashkiliy qism va yakuniy qism. | Asosiy qism va tashkiliy qism. |
| **Boshlang'ich sinflarda qo'l** | *Turli materiallar bilan ishlash, | Turli materiallar | Turli materiallar, | A'plikatsiya va mozaika ishlar, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **mehnati turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | gazlama va ip turlari bilan ishlash, loyihalash va modellash ishlari, qishloq xo'jalik ishlari, qog'oz va karton bilan ishlash. | bilan ishlash, loyihalash va modellash ishlari, qishloq xo'jalik ishlari, qog'oz va karton bilan ishlash. | gazlama bilan ishlash, qishloq xo'jalik ishlari. | qog'oz va karton bilan ishlash. |
| **Telefon ko'rgazmali qurolidan qaysi darsda foydalanish mumkin?** | *Ona tili va o'qish darslarida. | Ona tili darsida. | Darsdan tashqari mashg'ulotlar da. | O'qish darslarida. |
| **Turli materiallar bilan ishlash ish turi qaysi qatorda ko'rsatilgan?** | *Applikatsiya va mozaika, loy va plastilin, turli tabiiy materiallar bilan ishlash. | Applikatsiya va mozaika, pape-mashe, qog'oz va karton bilan ishlash. | Tabiiy materiallar, loy va plastilin, qog'oz va karton bilan ishlash. | Applikatsiya, mozaika va turli materiallar bilan ishlash. |
| **Qog'ozdan maketlar yasaganda nimalarga e'tibor berish kerak?** | *Qog'ozning rangiga va sifatiga, buklash chiziqlariga, qog'ozning shakliga, to'g'ri buklashga. | Qog'ozning sifatiga, buklash chiziqlariga, shakliga. | Qog'ozning sifatiga,buklash chiziqlariga. | Qog'ozning shakliga, buklash chiziqlariga, to'g'ri buklashga va yelimlashga. |
| **Maketlar yasashda ishlatiladigan ish qurollari va materiallar.** | *Rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, yozuv qog'ozi. | Yozuv qog'ozi, rangli qog'oz, yelim. | Rangli qog'oz, rangli karton, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich. | Qaychi, rangli qog'oz, rangli karton, yelim, |
| **Qog'oz qanday tayyorlanadi?** | *Yog'och tarkibiga 25% tsellyuloza qo'shilib tayyorlanadi. | Tsellyulozadan tayyorlanadi | Yog'ochdan tayyorlanadi. | Yelim aralashtirilgan yog'och qipiqlaridan. |
| **Kartondan tayyorlangan "Sanoq sonlari" ko'rgazmali quroli qaysi fanda** | *Matematika darslarida. | O'qish darslarida. | To'garaklarda. | Ona tili darslarida |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **qo'llaniladi?** | | | | |
| **Jismoniy mehnat nima?** | *Insonning tana a'zolari orqali ongli ravishda faoliyat ko'rsatish. | Insonni mehnat qilish faoliyati. | Jismoniy harakat. | Mehnatning hamma turi jismoniy mehnatdir. |
| **Mehnat darslarida kartondan nimalar yasaladi?** | *Ko'rgazmali qurollar | Maketlar. | Kitoblar. | Foto ramkalar. |
| **Mehnat-bu nima?** | *Maqsadga yo'naltirilgan aqliy va jismoniy faoliyat. | Mehnat odam uchun kerakli va zarur faoliyat. | Tabiatga ta'sir qilib undan o'ziga kerakli maqsadda foydalanish. | Mehnat moddiy ehtiyojlarini qondirish |
| **Mehnatga amaliy tayyorlash qanday amalga oshiriladi?** | *Asbob va uskunalardan foydalana bilish, materialga ishlov bera olish, xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olishga o'rgatish. | Mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir. | Asbob va uskunalardan foydalana bilish. | Mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish. |
| **Mehnat o'qituvchisi darsda nimalarga e'tibor berishi kerak?** | *Darsni rejalashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, ko'rsatmaga amal qilishga, ish joyini to'g'ri tashkil etishga | Darsni tushuntirish, materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni materiallarga ishlov berish usullarini va bosqichlar izchilligini ko'rsatishga. | Bolaning qobiliyatiga, qiziqishiga, imkoniyatlari ga e'tibor berish kerak. | Ish joyini to'g'ri tashkil etishga |
| **Ommaviy ish turlari** | *Kechalar, konkurslar, musobaqalar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko'rgazmalar. | Jamoada ishlash. | To'garaklarda ishlash. | Kichik guruhlarda ishlash. |
| | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Mehnat fanining vazifasi.** | *Mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlash.Mehnatga muhabbat ruhida, mehnat madaniyatini, do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. | Iroda, axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, intizomlilik, burch hissini tarbiyalab, aqliy va jismoniy o'sishiga yordam beradi. | Mehnatga muhabbat ruhida, mehnat madaniyatini, do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilikni shakllantiradi. | Mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlaydi. |
| **Qo'l mehnatiga o'rgatishdagi usullar.** | *Og'zaki bayon qilish, tushuntirish va hikoya qilish, ko'rgazmalilik, suhbat, mashqlar, amaliy ishlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ish, ekskursiya, kitob bilan ishlash, kino (ta'limning texnik vositasi). | Tushuntirish va hikoya qilish, og'zaki bayon qilish, suhbat, kitob bilan ishlash, laboratoriya ishlari, amaliy ishlar, mashqlar, ekskursiya, ta'limning texnik vositalari, mustaqil ish. | Og'zaki bayon qilish, tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj, suhbat, mashqlar, amaliy ishlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ish, ekskursiya, kitob bilan ishlash, kino, ta'limning texnik vositasi, ko'rgazmalilik. | Amaliy ishlar, laboratoriya ishlari, ta'limning texnik vositalari, og'zaki bayon qilish, mustaqil ishlar. |
| **Mehnat fani o'qituvchisining vazifasi.** | *O'quvchilarda mehnat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga qiziqtirish ishlarini amalga oshirish. | O'quvchilarni jamoada ishlashga o'rgatish. | O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish. | Amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish. |
| **A.Navoiy fikricha, "Inson bo'lib dunyoga keldingmi** | *Biron-bir kasb egalla, hunar o'rgan, shunda | Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir, yopiq | Qo'ling doim mehnatda, diling doim | Mehnat qil va yaxshi yasha. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **- ….”** | dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o’tmaysan. | eshiklarni ochar birma-bir. | Allohda bo’lsin. | |
| **Mehnat xonalarini jihozlash talablari.** | *Xona toza, yorug’lik tushib turadigan, ish qurollaridan namunalar tashkil qilingan, o’quvchilarni harakatlanishi uchun qulay bo’lgan, ish materiallari bilan jihozlangan. | Sanitariya-gigiena talablariga javob bera oladigan. | Mehnat fani uchun kerakli bo’lgan ish qurollari mavjud bo’lishi kerak. | Toza, yorug’lik tushib turadigan xona. |
| **Mehnat ta’limining maqsadi nima?** | *O’quvchilarni axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik, aqliy va jismoniy mehnatga o’rgatish. | O’quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash. | O’quvchilarni kasb-hunarga o’rgatish. | O’quvchilarni mehnat qilishga o’rgatish |
| **Qaychi ish stolining qaysi tomonida turishi kerak?** | *Ish stolining o’ng tomonida | Ish stolining old tomonida | Ish stolining chap tomonida | Ish stolining yon tomonida |
| **Mehnatga axloqiy tarbiyalash nima?** | *Ijodiy, tashabbuskorlik,tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish. | Bolalarga jamoada ishlashni o’rgatish; | O’zaro do’stona yordam berishni o’rgatish; | tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish. |
| **Mehnat darsi jarayonidagi psixologik komponentlar.** | *Sezib- anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur. | Diqqat, xotira. | Fikrlash, tasavvur hosil qilish | Idrok, e’tibor, eshitish. |
| **Qog’oz qaysi mamlakatda ixtiro qilingan?** | *Xitoyda | Yunonistonda | Amerikada | Yaponiyada |
| **Mehnat ta’limi qaysi qatorda to’g’ri** | *Aqliy va jismoniy | Aqliy va harakatlanuvchi | Jismoniy va ongli | Jismoniy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **ko'rsatilgan?** | | | | |
| **Tabriknoma qanday maqsadda yasaladi?** | *Taklif etish uchun, tabriklash uchun, bayramlar uchun | Taklif etish uchun | Tabriklash uchun, bayramlar uchun | Bayramlar uchun |
| **Mehnat qilish orqali inson nimalarga erishadi?** | *Obro'-e'tiborga,moddiy boylikka, hurmatga | Obro'-e'tiborga | Moddiy boylikka | Hurmatga |
| **Mehnat darslaridagi ish turi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *5 ta ish turi | 10 ta ish turi | 7 ta ish turi | 6 ta ish turi |
| **Darsning tashkiliy qismi qanday tashkil etiladi?** | *Salomlashuv, davomatni aniqlash, darsga hozirlik ko'rish, uy vazifasini tekshirish. | Salomlashuv, davomatni aniqlash, yangi mavzuni tushuntirish. | Salomlashuv, davomatni aniqlash. | Salomlashuv, davomatni aniqlash, savol-javob. |
| **Karton qanday qog'oz?** | *1 kv. metri 250 grammdan ortiq qog'oz | Og'irligi 500 grammli qog'oz | Bukilishi va qirqilishi qiyin qog'oz | Og'irligi 150 gramm bo'lgan qog'oz |
| **Mehnat darslarida qaysi ish turiga ko'p soat ajratilgan?** | *Qog'oz va karton bilan ishlashda | Gazlama va ip turlari bilan ishlashda | Plastillin va loy bilan ishlashda | Turli tabiiy materiallar bilan ishlashda |
| **Qaysi asbob bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish kerak?** | *Qaychi, igna, bigiz, pichoq bilan ishlashda | Qog'oz bilan ishlashda | Plastillin va loy bilan ishlashda | karton bilan ishlashda |
| **Daraxt barglarini quritish yo'llari.** | *Dazmollab, presslab va gerbariy qutilarida quritish | Kitob orasida quritish, dazmollab quritish, presslab quritish | Dazmollab quritish, kitob orasiga solib quritish. | Dazmollab quritish, presslab quritish |
| **Gazlama bilan ishlaganda qanday asboblardan foydalaniladi?** | *Qaychi, igna, angishvona | Qaychi, igna va ip. | Qaychi, igna, ip va angishvona. | Qaychi va ip |
| **Qaychidan foydalanish** | *8 ta | 7 ta | 10 ta | 6 ta |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **qoidalari nechta?** | | | | |
| **Ninadan foydalanish qoidalari nechta?** | *7 ta qoida | 9 ta qoida | 6 ta qoida | 8 ta qoida |
| **Bigizdan foydalanish qoidalari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *Bigizni o'rinsiz ishlatma va g'ilofda saqla. | Bigizni g'ilofda saqla. | Sirti silliq, sirg'anchiq qattiq predmetlarni bigiz bilan teshma. | Teshilgan predmetlarni qo'ling bilan ushlama |
| **Mustaqil ish bu...** | *O'qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlar. | Mustaqil ishlarda yangi bilimlarni berish maqsadlari qo'yiladi. | O'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadigan ishlar. | Ishga ijodiy yondashishni, olingan bilimlarni amalda qo'llay bilishni o'rganadilar. |
| **Qog'ozga ishlov berish usullari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *O'lchash, buklash, yirtish, qirqish, yelimlash. | O'lchash, buklash, kesish, yelimlash, g'ijimlash, yo'ishtirish. | Qirqish, yelimlash, o'lchash. | Buklash, yirtish, qirqish, yelimlash, yopishtirish, o'lchash, kesish. |
| **Mehnat ta'limining asosiy vazifalari nima?** | *Mehnatga axloqiy, ruhiy va amaliy tayyorlash. | Bolalarning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy qobiliyatlarini tarkib toptirish. | Mehnatga o'rgatish, psixologik tayyorlash | Bolaning yoshini, aqliy, imkoniyatini takomillashtirish. |
| **Rangli qog'ozdan maketlar yasashda qanday ishlar amalga oshiriladi?** | *Qirqish, buklash, yelimlash. | Buklash, yasash, qirqish. | Qog'ozni buklab yasash. | Shakl berish, buklash, yelimlash. |
| **Darsning yakuniy qismida qanday ishlar amalga oshiriladi?** | *Amaliy ishlar tahlil qilib, baholanadi Ish o'rni tozalanadi va uyga vazifa beriladi. | Xato va kamchiliklar to'g'rilanadi. | Amaliy ishlar tahlil qilib, baholanadi. | Ish o'rni tozalanadi va uyga vazifa beriladi. |
| **Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar** | *Qo'l mehnati turi bilan shug'ullanadi. | Texnik mehnat turi bilan shug'ullanadi | Maishiy mehnat turi bilan | Amaliy mehnat turi bilan shug'ullanadi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **qanday mehnat turi bilan shug'ullanadi**? | | | shug'ullanadi | |
| **Qog'oz qanday xususiyatga ega?** | *Yonadi, qirqiladi, chiziladi, g'ijimlanadi, yelimlanadi, yirtiladi, bo'yaladi, yoziladi, namlikni o'ziga singdiradi. | Yonadi, qirqiladi, yelimlanadi, g'ijimlanadi, chiziladi. | Qirqiladi, g'ijimlanadi, yonadi, yirtiladi, yoziladi, chiziladi, yelimlanadi, namlikni o'ziga singdiradi. | Qirqiladi, g'ijimlanadi, yonadi, yirtiladi, yoziladi, chiziladi, yelimlanadi |
| **Stakan maketini yasash necha bosqichda amalga oshiriladi?** | *4-bosqichda | 5-bosqichda | 6-bosqichda | 3-bosqichda |
| **Lola maketi qanday shakldagi qog'ozdan yasaladi?** | *Kvadrat shaklidagi qog'ozdan | To'rtburchak shaklidaga qog'ozdan | To'rtburchak | To'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'ozdan |
| **Boshlang'ich sinfdagi mehnat fanini qaysi fanlar bilan integratsiyalash mumkin?** | *Tabiat, rasm, odobnoma, matematika, o'qish. | Rasm, chizmachilik, odobnoma, biologiya | Mehnat fani hech qaysi fan bilan integratsiyalashmaydi | Tabiat, rasm, chizmachilik, odobnoma, biologiya, matematika, ximiya. |
| **Qog'ozni buklab turli shakllar yasash qanday nomlanadi?** | *Maket yoki origament deb nomlanadi. | Applikatsiya va mozaika ishlari deb nomlanadi. | pape-mashe ishlari deb nomlanadi. | Kvilling deb nomlanadi. |
| **Mehnat darsini rejalashtirishda nimalarga e'tibor berishi kerak?** | *Mehnat darsida yangidan-yangi bilim va ko'nikmalar berishga. | Bolaning qobiliyatiga, qiziqishiga, imkoniyatlariga. | Mehnat darsida bilim va ko'nikmalar berishga. | Kerakli ish qurollari va ko'rgazmalarni tayyorlashga |
| **Boshlang'ich sinflarda mehnat fanidan qanday to'garaklar mavjud?** | *Mohir qo'llar to'garagi | Dizaynerlik to'garagi | Tikuvchilik to'garagi | To'quvchilik to'garagi |
| **Qog'ozni oddiy usullarda buklab** | *16 ta kvadrat va 32 ta uchburchak. | 16 ta kvadrat va 30 ta | 14 ta kvadrat 28 ta | 14 ta kvadrat va 32 ta |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **qanday shakllar hosil qilish mumki?** | | uchburchak. | uchburchak. | uchburchak. |
| **Qog'ozni ketma-ket buklash usulida nimalar yasash mumkin?** | *Uycha, paraxod, pirpirak, qo'shqayiq, yelkanli qayiq, qushcha, samalyot, baliqcha. | Uycha, paraxod, pirpirak, qo'shqayiq, qushcha, samalyot, baliqcha. | Uycha, paraxod, pirpirak, qo'shqayiq, yelkanli qayiq, qushcha, samalyot, kuchukcha. | Uycha, paraxod, pirpirak, qo'shqayiq, yelkanli qayiq, samalyot, baliqcha. |
| **Amaliy ish darsning qaysi bosqichida amalga oshiriladi?** | *Asosiy qismida | Tashkiliy qismida | Yakuniy qismida | Mustahkamlash qismida |
| **Mehnat ta'limida texnologik xaritadan nima uchun qo'llaniladi?** | *Ishni boshlash va tugallashni tartibga soluvchi hujjat. | Birorta ish mazmunini, ob'ektini qog'ozga tushirish. | Birorta buyumni yasash jarayoni aks ettirilgan rasmli hujjat | Texnika-texnologik jarayonlar yig'indisi |
| **O'qituvchi mehnat darsning yakuniy qismida qanday ishlarni amalga oshiradi?** | *O'quvchilarni amaliy faoliyatini baholaydi, uyga vazifa beradi. | Savol-javob o'tkazadi va mustahkamlaydi. | O'quvchilarni dars jarayonidagi faoliyatini mustahkamlaydi va baholaydi | Uyga vazifa beradi va ish joyini tozalaydi. |
| **"Bayram tabriknomasi tayyorlash" mavzusi qaysi ish turiga kiradi?** | *Qog'oz va karton bilan ishlash turiga kiradi | Karton va rangli qog'oz bilan ishlash turiga kiradi | Applikatsiya va mozaika ishlari turiga kiradi | Konstruktorlik va modellashtirish ishlar turiga kiradi |
| **Mehnat darsining necha qismi amaliy ishga ajratiladi?** | *Darsning 3/4 qismi | Darsning 100% foizi | Darsning 2/4 qismi | Darsning 1/4 qismi |
| **O'quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash vazifasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *O'quvchilar-ning yoshiga mos keluvchi ongli va ijodiy sifatlarni tarkib toptirish. | Hissiy bilish jarayonini tarkib toptirish. | Bolaning psixologik jarayonlarini rivojlantirish | Ongli va ijodiy sifatlarni tarkib toptirish. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2-3-sinf mehnat darsligi qaysi yilda nashr etilgan?** | *2012 yil | 2013 yil | 2011 yil | 2006 yil |
| **Darsga qo'yiladigan maqsadlarini belgilang?** | *Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlartiruvchi maqsad | Ta'limiy, tashkiliy, yakuniy maqsad | Ta'limiy, tarbiyaviy, tashkiliy maqsad | Rivojlantiruvchi, tashkiliy maqsad |
| **Uzluksiz ta'lim tizimi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?** | *Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim. | Boshlang'ich ta'lim, o'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limi. | Maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim (bakalavr va magistratur. | Umumiy o'rta ta'lim, boshlang'ich ta'lim, oliy ta'lim. |
| **Kichik guruhlarda ishlash shaklini aniqlang** | *Bunda, o'quvchilarning hammasi bir xil topshiriqni bajarishdan iboratdir, shuning uchun o'qituvchi bir vaqtning o'zida butun gruppa ishiga rahbarlik qila oladi. | Bunda, gruppaning har biri 3-4 kishilik guruhlarga bo'linishi, bu guruhlarning har qaysisi o'z topshirig'ini bajarishi nazarda tutiladi. | Bunda, hamma o'quvchilar har xil ishni bajarishdan iborat. | O'quvchilar individual ish bajaradi. |
| **O'qitishning yakka holda ishlash shaklini aniqlang.** | *Hamma o'quvchilar har xil ishni bajaradi, o'quv jarayonni boshqarish o'quvchilarning hammasini zarur materiallar bilan ta'minlash qiyin bo'ladi. | O'quvchilarning hammasi bir xil topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi bir vaqtda butun guruh ishiga rahbarlik qila oladi. | Barcha o'quvchilar har xil ishni bajarishidan iborat. | Sinf o'quvchilari umumiy topshiriq ustida ishlaydilar. |
| **Qaychidan** | *Qaychini | Qaychini | Qaychini o'z | O'tmas |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **foydalanish talablar.** | uzatganda teskarisini qilib uzat, harakatlanganingda ishlatma. | harakatlangani ngda ishlatma. | o'rnida ishlat | qaychidan foydalanma |
| **Og'zaki bayon qilish metodi qanday amalga oshiriladi?** | *Monologik va dialogik bayon qilinadi. | Yangi mavzu tushuntiriladi. | Yangi ma'lumotlar beriladi. | Suhbat, savol-javob o'tkaziladi |
| **Suhbat metodining maqsadi.** | *O'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar bilan o'quvchilarga ilgari o'zlashtirgan bilimlarni esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi. | Yangi mehnat tushunchalari ochib beriladi, mehnat va texnologik jarayonlari haqidagi ma'lumotlar o'rganilib chiqiladi. | O'quvchilar o'qituvchilar savoliga javob berib boradi. | O'quvchilardan intervyu oladi. |
| **Hikoya va tushuntirish metodiga qo'yiladigan talablar qaysilar?** | *Mazmunining to'g'riligi, materialni o'zini oqlagan izchillikda bayon qilish, aniqlik va isbotlilik, bayonning emotsionalligi, o'qituvchining nutq madaniyati. | Faqat 3 ta: mazmunning to'g'riligi, aniqlik va isbotlilik, bayonning emotsionalligi. | Faqat 2 ta: aniqlik va isbotlilik hamda mazmunning to'g'riligi. | Faqat aniqlik va isbotlilik. |
| **Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish metodi nimalarga asoslanadi?** | *O'quvchilarning o'rganayotgan ob'ektlarini hodisalar va ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rgazmali hissiy idrok qilishni ta'minlaydi | Mehnat va hunar ta'limining o'rganilayotgan ob'ektlarini ko'rgazmali hissiy idrok qilishga asoslangan metoddir. | O'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar bilan o'quvchilarga ilgari o'zlashtirgan bilimlarini esga tushiradi va shu asosida yangi bilimlar hosil qilishga | Darsda ko'rgazma va slaydlardan foydalaniladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | undaydi. | |
| **Mehnat ta'limini rejalashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?** | *DTS talablariga, o'quv dasturiga, o'quv rejaga. | Darsni tashkil etilishiga, kirish, joriy va yakuniy instruktajlarga. | O'quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo'lib, u didaktika printsiplariga to'la to'kis mos keladigan bo'lishi kerak. | Davlat ta'lim standartlariga e'tibor berish kerak. |
| **Mehnat ta'limini rejalashtirishda qanday hujjatlar tuzib chiqiladi?** | *Mehnat bo'yicha yarim yilga yoki 1 yilga mo'ljallangan kalendar mavzu rejasi. | Tabiiy ilmiy turkumdagi fanlarning yig'ma mavzu rejasi. | Aniq mavzu yuzasidan batafsil konspektga ega bo'lgan dars rejasi. | Texnologik xaritalar. |
| **Mehnat ta'limi bo'yicha kalendar mavzuli rejasi dastur asosida qancha muddatga tuzib chiqiladi?** | *Yarim yilga yoki 1 yilga. | 3 yilga. | 2,5 yilga. | 2 yilga. |
